

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI**

**SHOYIMOVA SHOXISTA SANAKULOVNA**

**OLIY TIBBIY TA’LIM MUASSASALARI PEDAGOGLARI  
FAOLIYATINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

**19.00.05. – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

UO‘K: 316.6:378-051:61+159.947.24

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
психологических наук (DSc)**

**Content of Dissertation Abstract of the Doctor of  
Psychological Sciences (DSc)**

**Shoyimova Shoxista Sanakulovna**

Oliy tibbiy ta’lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlari..... 3

**Шойимова Шохиста Санакуловна**

Социально-психологические детерминанты деятельности педагогов высших медицинских учебных заведений.....33

**Shoyimova Shokhista Sanakulovna**

Socio-psychological determinants of the activities of teachers of higher medical educational institutions.....65

**E’lon qilingan ishlar ro’yhati**

Список опубликованных работ

List of published works.....70

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI**

**SHOYIMOVA SHOXISTA SANAKULOVNA**

**OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGLARI  
FAOLIYATINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/P133 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Umarov Baxriddin Mengboyevich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Karimova Vasila Mamanosirovna**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Abdullayeva Shoira Hamidovna**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sobirova Dilafuz Abduroziqovna**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:** **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi.)

**F.A.Akramova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, psixologiya fanlari  
doktori (DSc), professor v.b

**N.B.Atabayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, psixologiya  
fanlari doktori (DSs), professor v.b

**Z.T.Nishonova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda inson hayoti va salomatligi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson salomatligini mustahkamlash, yuzaga keladigan kasalliklarni davolash, reabilitatsiya va profilaktikaga yo‘naltirilgan tibbiyot muassasalari pedagoglarining faoliyatiga qo‘yiladigan talablar hamisha dolzarb hamda ahamiyatlidir. Jumladan, oliy tibbiy ta‘lim muassasalari pedagoglarining faoliyati samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkichlardan biri sifatida inson salomatligi uchun qo‘shayotgan hissalarini keltirish o‘rinlidir. Jahon oliy ta‘lim muassasalari reytingiga oid ma‘lumotlarda keltirilishicha, Jons Xopkins universitetining 16 nafar professor-o‘qituvchilari va bitiruvchilari Nobel mukofoti laureatlari, Yel universitetida esa tibbiyot sohasi bo‘yicha faoliyat olib borayotgan 70 nafar pedagoglar AQSh Milliy Akademiyasi hamda 47 nafari AQSh tibbiyot sohasidagi Milliy akademiya a‘zolari ekanligi e‘tirof etilgan<sup>1</sup>. Bu borada, oliy tibbiy ta‘lim muassasalari pedagoglarining faoliyati inson salomatligiga xizmat qiladigan mutaxassislarni tayyorlashda muhim bo‘lib, mazkur muammoni tadqiq etish zarurati va ahamiyatini yanada dolzarblashtiradi.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlarida oliy tibbiy ta‘limda pedagogning rolini kuchaytirish, uning tuzilmasida psixologiyaning o‘rni, shu bilan birga, shifokor-pedagog ta‘lim muhitida to‘g‘ri qaror qabul qilish xususiyatlarini takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada oliy tibbiy ta‘lim muassasalari pedagoglari faoliyati samaradorligini ta‘minlashga ijtimoiy-psixologik determinantlar hisoblangan kasbiy motivlarning ta‘siri, ular faoliyatining samaradorligi indeksleri, pedagogik jamoadagi muhitning ta‘sirini tavsiflovchi psixologik omillarni aniqlash va faoliyatni takomillashtirishga yo‘naltirilgan masalalarga e‘tibor qaratish dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda tibbiy ta‘limni rivojlantirish orqali aholi salomatligini ta‘minlash, salohiyatli tibbiyot xodimlarini tayyorlashni yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ishlab chiqishga oid zarur me‘yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. «Inson qadri uchun» tamoyili asosida<sup>2</sup> «...Yangi O‘zbekistonda, albatta, har tomonlama sog‘lom, o‘zining kuch-qudrati, barkamolligi bilan o‘zgalarning havasini uyg‘otadigan avlodlar yashashi uchun sog‘liqni saqlash tizimida yuksak samaradorlikka erishish... strategik vazifa bo‘lishi...»<sup>3</sup>ga asoslangan sifatli tibbiy xizmatni joriy etish, bemorlarga tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatishni uyg‘un tarzda olib borish zaruratligi tufayli mazkur mavzuni ilmiy tadqiq etishni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topishga mustahkam asos bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022—2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>1</sup> Лучшие медицинские ВУЗы за рубежом// <https://travelsmartclub.com/publications/luchshie-meditsinskie-vuzi-za-rubezhom>

<sup>2</sup> [https://www.lex.uz/ Хусусий тиббиёт ташкilotларини ривожлантиришни қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги ПҚ-4606-сон қарори.](https://www.lex.uz/docs/Хусусий_тиббиёт_ташкilotлари_учун_такикланган,_аҳолининг_хаёти,_соғлиги_ва_санитария-эпидемиологик_хотиржамлиги_учун_юқори_даражадаги_хавф-хатар_билан_боғлиқ_тиббий_фаолиятнинг_айрим_турлари._Ўзбекистон_Республикаси_Президентининг_2017_йил_1_апрелдаги_ПҚ-2863-сон_қарори.https://www.lex.uz/)

<sup>3</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: «O‘zbekiston», 2021. - Б. 464.

to'g'risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Farmonlar, 2017 yil 5 maydagi PQ-2956-son «O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-son «Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 7 apreldagi PQ-4666-son «Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son «Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlar hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

#### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>4</sup>.**

Tibbiy ta'limni rivojlantirish va soha mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Harvard University (AQSh), Stanford University (AQSh), Imperial College of London (Buyuk Britaniya), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Karolinska Instituti (Shvetsiya), University of Melbourne (Avstraliya), Birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Moskva davlat tibbiy-stomatologiya universiteti (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan olib borilmoqda.

Jahonda tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining psixologik muammolarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, tibbiy ta'limda Pathways va HST dasturlari orqali kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan (Harvard University, AQSh); pedagog-maslahatchilar faoliyatini tashkil etish asosida ta'lim muhitida «pedagog-talaba» munosabatlar tizimi mezonlari takomillashtirilgan (Stanford University, AQSh); ta'lim jarayoni tuzilmasini qayta tashkil etish asosida psixologiya bilan psixiatriya hamda nevrologiyaning o'zaro aloqadorligi bo'yicha tibbiyot xodimlari tayyorlash jarayoni optimallashtirilgan (Imperial College of London, Buyuk Britaniya); tibbiyotning har qanday sohasida nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni yo'lga qo'yish asosida yuqori malakali shifokorlar hamda sog'liqni saqlash, ilmiy tadqiqot va tibbiy ta'lim sohasidagi rahbarlarni tayyorlash o'quv dasturlari va klinik imkoniyatlarni kengaytirishga yangi yondashuv ishlab chiqishga erishilgan (University of Cambridge, Buyuk Britaniya); klinika bilan ilmiy markazlar hamkorligi asosida tibbiy va tabiiy fanlar bo'yicha tadqiqotlar tashkil etish

---

<sup>4</sup> Диссертация мавзусига доир хорижий тадқиқотлар таҳлили URL:<https://www.harvard.edu/>,  
URL:<https://www.stanford.edu> <https://www.imperial.ac.uk/>, Eastern Michigan University),  
<https://www.unimelb.edu.au/>. URL:<https://www.cam.ac.uk/>, URL:<https://raex-rr.com/database/contender>,  
URL:<http://www.raex-rr.com/database/contender/>

orqali shifokor-pedagoglar faoliyati optimallashtirishga erishilgan (Karolinska Institute, Shvetsiya); tibbiy ta'limda klinik, klinik oldi va tibbiy modul pedagoglarining hamkorligini shakllantirish orqali malaka oshirish tizimlashtirilgan (University of Melbourne, Avstraliya); pedagog va talaba munosabatlarini raqamli kafedra tizimida tashkil etish asosida klinik, klinik oldi va tibbiy fanlarni uzluksizlikda o'qitish optimallashtirilgan (Birinci Moskva davlat tibbiyot universiteti, Rossiya Federatsiyasi); tibbiy ta'lim klasterini tashkil etish dasturini shakllantirish uzluksiz ta'limda pedagoglarning hamkorlik faoliyatini tashkil etishga sabab bo'lgan (Moskva davlat tibbiy-stomatologiya universiteti, Rossiya Federatsiyasi).

Bugungi kunda jahonda zamonaviy tibbiy ta'lim yo'nalishi pedagoglari faoliyati samaradorligini ta'minlash va ularni faoliyatga yo'naltirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarda pedagogik kompetensiyaning muhim sifatleri majmuini ishlab chiqish va tibbiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy-psixologik jabhalarini aniqlash; tibbiyot oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining tibbiy hamda pedagogik faoliyatini uyg'unligiga erishish va ularning faoliyatini pedagogik-psixologik jihatdan takomillashtirish kabilar yoritilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda tibbiy ta'lim va uning samaradorligini ta'minlash bo'yicha psixologik tadqiqotlar soni kam bo'lsa-da, ammo respublikaning bir qator psixologiya sohasidagi yetakchi olimlari tomonidan tibbiy psixologiya yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Tibbiy psixologiya masalalari borasida Sh.R.Baratov, Z.R.Ibodullayev, D.I.Ilxamova, M.X.Karamyan, V.M.Karimova, R.N.Melibayeva, Yu.K.Narmetova, Z.T.Nishonova, D.A.Sobirova, D.A.Urazbayeva, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov va boshqalar<sup>5</sup> tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida salomatlik psixologiyasi, psixofiziologiya, psixogigiya, tibbiy psixologiya, tibbiy psixodiagnostika sohalarida psixologik xizmat masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan I.N.Denisov, M.C.Diankina, K.B.Zorin, T.E.Isayev, I.I.Kosarev, N.V.Kudryavaya, M.A.Mesheryakova, L.N.Molchanova, V.B.Nikishina, I.V.Ciluyanova, N.V.Chebishev, V.R.Shurupova va

---

<sup>5</sup> Баратов Ш.Р. Ўзбекистонда психологик хизмат асослари. - Т.: 2006. - 49 б.; Иbodullayev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi. //Darslik. – Toshkent: «Zamin Nashr» nashriyoti. 2019. - 494 б.; Илхамова Д.И. Половозрастные особенности отношения личности к болезни при сердечно-сосудистых заболеваниях (на примере больных ишемической болезнью сердца и артериальной гипертонией). //Автореф. дисс... канд. психол. н. - Т. 2003. - 22 с.; Карамян М.Х. Шахнинг саломатликка қадрият сифатидаги муносабатининг ижтимоий-психологик детерминацияси. //Психол.фан. доктори (DSc) дисс... автореф. - Тошкент. 2019. - 81 б.; Каримова В.М. Саломатлик психологияси. - Т.: 2005. - 94 б.; Мелибоева Р.Н. Тиббиёт соҳасида психологик диагностика методикаларининг қўллаш тизимини такомиллаштириш. //Психол. фан доктори (DSc) дисс... автореф. –Тошкент. 2022. - 72 б.; Нарметова Ю.К. Соғлиқни сақлаш тизимида психологик хизмат фаолиятини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. //Психол. фан бўйича фалсаф доктори (PhD) дисс... автореф. - Тошкент. 2019. - 51 б.; Нишоновна З.Т. Психологик хизмат. - Т.; 2006. - 156 б.; Собирова Д.А.Тиббиёт ходимлари фаолиятида социал-психологик компетентлик омилларининг намоён этилиши ва ривожланиши. //Психол.фан доктори (DSc) дисс... автореф. – Тошкент. 2022. - 67 б.; Уразбаева Д.А. Онкологик беморлар билан психокоррекция иш олиб боришнинг ижтимоий-психологик асослари. //Психол. фан доктори (DSc) дисс... автореф. - Тошкент. 2022. - 68 б.; Шоумаров Ғ.Б. Баратов Ш.Р. «Психологик хизмат» Низомига қўшимчалар. //Халқ таълими. 1997. №3. - Б. 48-49.; Ғозиев Э. Олий таълимда психологик хизмат. - Т.: Ўқитувчи. 2002. - 95 б.; Қодиров Б.Р., Қодиров К.Б. Касбий ташхис методикалари. -Т.: 2003. - 69 б.

boshqalarning<sup>6</sup> tadqiqotlarida pedagog shaxsining asosiy sifatlari, ijtimoiy rollari, xarakter xislatlari, faoliyatni samarali tashkil etishda qobiliyatlarini namoyish etishi, psixologik va pedagogik kompetentligi, kasbiy pedagogik ong va tafakkur mazmuni hamda tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari, shifokor-pedagogning umumlashirilgan qiyofasi tuzilmasi, kasbiy mahoratga erishish yo'nalishlariga oid muammolar ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan N.M.Astafiyeva, A.W.Burgess, R.L.Epstein, Era Buck, S.M. Halpin, Julie Trumble, O.L.Kachan, Karen Szauter, Mainul Haque, Mark Clark, Mark Holden, I.S.Sever, G.Stricker, S.J.Trierweiler, J.D.Vermunt, Theo Wubbels va boshqalarning<sup>7</sup> ilmiy izlanishlarida tibbiyot soha mutaxassislarini tayyorlash, kasbiy kamolot va tibbiy ta'limni optimallashtirishning psixologik asoslari ilmiy tadqiq etilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasiga oid tadqiqotlar tahlilidan ko'rinadiki, oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari faoliyati ijtimoiy-psixologik jihatdan maxsus ilmiy tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining №20160817122231 - raqamli «Tibbiy ta'lim pedagoglari uchun «Tibbiyot pedagogikasi» elektron metodik portalini yaratish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2021-2022 y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi** oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlarini ochib berish va zarur amaliy tatbiqiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>6</sup> Денисов И.Н., Чебышев Н.В., Косарев И.И. и др. Мастерство преподавателя медицинского вуза. - М.: ММА. 1993. – 179 с.; Дианкина М.С. Профессионализм преподавателя высшей медицинской школы. - М. 2000. - 256 с.; Зорин К.В., Кудрявая Н.В., Молчанов Н.Б., Смирнова Н.Б., Уколова Е.М. Врач-педагог в изменяющемся мире. Традиции и новации. – Москва. 2001. - 304 с.; Исаева Т.Е. Классификация профессионально-личностных компетенций вузовского преподавателя. //Педагогика. 2006. №9. - С. 55-60.; Кудрявая Н.В., Уколова Е.М., Молчанов А.С., Смирнова Н.Б., Зорин К.В. Врач-педагог в изменяющемся мире: традиции и новации. – 2-е изд., испр. и доп. //Под редакцией академика РАМН. проф. Н.Д.Юшука. - М.: ГОУ ВУНМЦ. 2014. – 336 с.; Мещерякова М.А. Управление качеством профессиональной подготовки специалистов в системе высшего медицинского образования. Дисс... на соиск. учен. степ. д.п.н. М.: 2006. - 429 с.; Никишина В.Б., Молчанова Л.Н. Состояние выгорания медицинских работников в контексте внутрипрофессиональной дифференциации. //Известия ПГПУ им. В.Г. Белинского. 2011. № 24. - С. 986-992.; Силуянова И.В. Нравственная культура врача как основание медицинского профессионализма //И.В.Силуянова //Экономика здравоохранения. 2000. №1/42. – С. 5-8.; Шурупова Р.В. Концепция формирования и реализации социальной роли врача-педагога в отечественной медицине. //Дис. ... д-ра. социол. мед. наук. – Волгоград. 2011. - 468 с.

<sup>7</sup> Astafiyeva, N. M., Sever, I. S., & Kachan, O. L. (2020). The impact of emotional intelligence on the effectiveness of higher education teachers. *Amazonia Investiga*, 9(28). - P. 217-225.; Burgess, A. W., Epstein, R. L., & Halpin, S. M. (2015). Teacher burnout and job satisfaction in medical education. *Medical Science Educator*, 25(4). - P. 387-395; Mainul Haque. (2017). Influence of Role Model for Professional Development in Medical Education. *November Journal of Global Pharma Technology* 12(9): - P. 10-18; Mark Holden, Era Buck, Mark Clark, Karen Szauter & Julie Trumble Julie Trumble. (2012). Professional Identity Formation in Medical Education: The Convergence of Multiple Domains *HEC Forum*, vol. 24, pp. 245–255.; M. Wubbels, Jan D. Vermunt, & Theo Wubbels (2014). The relationship between teacher personality traits and teaching effectiveness in medical education. *Advances in Health Sciences Education*, 19(4). - P. 531-546.; Trierweiler, S.J., & Stricker, G. The scientific practice of professional psychology. New York: Plenum Press. (1998). -312 pp.

oliy tibbiy ta'lim muassasasida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish motivlari, umumiy samaradorlikni ifodalovchi xususiyatlarini empirik jihatdan tadqiq etish;

oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglarining kasbiy motivlarini takomillashib borishiga ko'ra, ijtimoiy-psixologik determinantlar rolining o'zgarib borishini o'rganish;

oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlari sifatida jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitning ta'siri, faoliyat samaradorligi komponentlari, kasbiy so'nish omillari va xususiyatlarini empirik tadqiq etish;

oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatida hayotiy qadriyatli munosabatlar ahamiyatini aniq dalillarda asoslash;

oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining yetakchi ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash asosida «Oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari faoliyati ijtimoiy-psixologik jabhalarini optimallashtirish konsepsiyasi»ni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash belgilangan bo'lib, tadqiqotda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti (ToshPTI), Toshkent tibbiyot akademiyasi (TTA), Samarqand davlat tibbiyot universiteti (SamDTU), Toshkent davlat stomatologiya instituti (TDSI), Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti (FarJSTI), Buxoro davlat tibbiyot instituti (BuxDTI), Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI), Toshkent farmatsevtika instituti (ToshFI)) professor-o'qituvchilaridan 691 nafar hamda talabalaridan 916 nafar jalb etilgan, respondentlarning umumiy soni 1607 nafarni tashkil etgan.

**Tadqiqotning predmetini** oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari kasbiy faoliyati xususiyatlarini belgilovchi va tavsiflovchi ijtimoiy-psixologik jihatlar, omillar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish, ekspert baholash usullari, shuningdek, R.Shvarser, M.Erusalemning «Umumiy o'z-o'zini samaradorligini tashxislash» shkalasi, K.Zamfirning «Kasbiy faoliyat motivatsiyasi», K.Maslach va S.Jeksonning «Kasbiy so'nish», V.V.Boykoning «Emotsional aloqalarni o'rnatishda «to'siq»lar diagnostikasi», V.S.Ivashkin, V.V.Onufriyevaning «Jamoadagi psixologik jipslik darajasini aniqlash» metodikalari hamda D.A.Leontyevning «Hayot mazmuniga yo'nalganlik», Ye.V.Suxovaning «Pedagog talabalar nigohida», R.X.Shakurovning «Jamoadagi psixologik muhitni o'rganish», «Kasb tanlash motivlarini aniqlash» (mualliflik) so'rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, Kruskal-Uollisning H-mezoni va Manni-Uitnining U-mezonlari, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

oliy tibbiy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borish determinantlariga ko'ra tibbiyot bilan pedagogik faoliyatni gumanizm tamoyili asosida uyg'unlashtirish shaxsda mas'uliyat, empatiya, burch hissini kuchaytirganligi tufayli kasbiy va shaxsiy

kamolotni ta'minlash, o'z bilimlarini boshqalar bilan baham ko'rish motivlari ustuvor xarakterga ega ekanligi isbotlangan;

oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglarida kasbiy faoliyat motivlarini namoyon bo'lishi bosqichlari ilk davrlarda «o'zini himoyalash va o'zini namoyon etish», oraliq kamolot davrida «ijtimoiy e'tirof etilish va o'zidan qoniqish» yuqori rivojlanish davrida «kasbiy va moddiy o'sish» mazmunidagi ijtimoiy-psixologik omillarning ustuvorligi tufayli uch bosqichli iyerarxik tuzilma mezonlari asosida aniqlangan;

kasbiy faoliyatda funksional vazifalar aniq belgilanmaganligi sababli tashkiliy omil, hamkasblarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi tufayli rolli omil, jamoada o'zini ahamiyatsiz his etish oqibatida shaxslilik omillari bilan bog'liq sindromlarning kuchayib ketishi natijasida pedagoglarda kasbiy so'nish darajalari (hissiy toliqish, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlar reduksiyasi) kuzatilishi isbotlangan;

pedagoglarning ijtimoiy mavqei jamoaga nisbatan munosabatlarini differensiallashuviga olib kelishi natijasida ta'lim muassasasida ishlashdan qoniqishi, hamkasblariga ko'maklashishi, jamoaning kayfiyati, pedagoglar ishining xayrixoh va xolisona baholanishi, hamkasblari bilan munosabatdan va ma'muriyatning g'amxo'rlikidan mamnunligi, pedagoglar o'zaro munosabatlarining ilmiy unvon hamda ilmiy darajalar mavqeiga ko'ra uyg'unligi va birligi ijtimoiy-psixologik muhitning ijobiylik hamda jamoaning jipsililigida yetakchi rol o'ynashi dalillangan;

hayotiy maqsad va qadriyatlarning o'zgarib borishiga ko'ra kasbiy vazifalarni shakllantirishi, yashash maqsadlarini aniqligiga erishish orqali pedagoglar o'z faoliyatidan qoniqishi, o'z hayoti egasiga aylanishi, muammolar yuzasidan qaror qabul qilish va erkin boshqara olish qobiliyatlari «hayot mazmunining asosiy komponentlari»ga aylanishi hisobiga har bir pedagogning jamoadagi ijtimoiy mavqeining o'sib borishida hayotiy qadriyatlarga munosabatning kuchaytirilishi ularning ekzistensial maqsadlarga erishishini ta'minlashi va shu orqali pedagogik jamoada shaxslararo munosabatlarga pozitiv tus beruvchi, ijobiy muhitni ta'minlovchi birlamchi ijtimoiy-psixologik determinantga aylanishi isbotlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlarining tavsiflari, «Oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik jabhalarini optimallashtirish konsepsiyasi» va uni amalga oshirish tizimi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

tibbiy ta'lim pedagoglari uchun «Tibbiyot pedagogikasi» elektron metodik portalini yaratish asosida pedagogik faoliyatda shaxslararo nizolar va ularni bartaraf etish omillari, pedagogning kommunikativ kompetensiyasi va tolerantligi hamda ular faoliyati samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik, pedagogik mexanizmlariga bag'ishlangan 16 soatlik maxsus kurs dasturi ishlab chiqilgan;

oliy tibbiy ta'lim muassasasida ish staji 5 yilgacha bo'lgan pedagoglarning kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish va malakasini oshirishga mo'ljallangan 20 soatlik metodik dastur yaratilib, «Yosh pedagoglar maktabi»ga tatbiq etilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining barcha bakalavriat yo'nalishlari uchun «Psixologiya va pedagogika» moduli, 5111000 - Kasb ta'limi (5510100 - Davolash ishi), 5510700 - Oliy hamshiralik ishi, 5510900 - Tibbiy biologik ish ta'lim

yoʻnalishlari uchun «Kasbiy taʼlim metodikasi», «Taʼlim texnologiyalari» modullari boʻyicha darsliklar hamda «Kasbiy psixologiya» moduli boʻyicha oʻquv qoʻllanma uchun tadqiqot xulosalari va tavsiyalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qoʻyilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, maʼlumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan koʻrsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», IBM SPSS Statistics 21 dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** oliy tibbiy taʼlim muassasalarida tibbiy va pedagogik faoliyatni birgalikda olib borish motivlari, faoliyat samaradorligini belgilovchi psixologik omillari, pedagogik kompetentlik xususiyatlari, pedagogik jamoaning jipsligi va jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitning faoliyatga taʼsiri, kasbiy soʻnish omillari va xususiyatlari, hayotiy qadriyatlari, pedagoglar faoliyatining yetakchi ijtimoiy-psixologik determinantlari mazmun-mohiyati tavsiflangan ilmiy xulosalardan psixologiya, pedagogika taʼlim yoʻnalishlardagi ilmiy tadqiqotlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** shundaki, olingan ilmiy xulosa va tavsiyalardan, tibbiy taʼlim muassasalari pedagoglari jamoasidagi ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni taʼminlovchi, pedagoglar faoliyatini oʻquv modullariga koʻra optimallashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish orqali OTMlarda psixologik xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilashda foydalanish mumkinligi, shuningdek, «Tibbiy taʼlim pedagoglari uchun «Tibbiyot pedagogikasi» elektron metodik portali» va tibbiy taʼlim muassasalari pedagoglari faoliyatini takomillashtirishga doir tadqiqotlar yoʻnalishini aniqlashtirishda, «Ijtimoiy psixologiya», «Etnopsixologiya», «Pedagogik psixologiya», «Kasbiy psixologiya», «Psixologiya va pedagogika», «Ontogenez psixologiyasi. Rivojlanish psixologiyasi», «Psixologik xizmat» modullaridan oʻquv qoʻllanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lugʻatlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy tibbiy taʼlim pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlariga doir tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy tibbiy taʼlim muassasalarida faoliyat olib borish determinantlariga koʻra tibbiyot bilan pedagogik faoliyatni gumanizm tamoyili asosida uygʻunlashtirish shaxsda masʼuliyat, empatiya, burch hissini kuchaytirganligi tufayli kasbiy va shaxsiy kamolotni taʼminlash, oʻz bilimlarini boshqalar bilan baham koʻrish motivlari ustuvor xarakterga ega ekanligi isbotlanganligiga oid maʼlumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023 yil 4 dekabrda PM-98-sonli buyrugʻi bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya oʻquv-ilmiy markazining 2023 yil 11 dekabr PM-98 a-son maʼlumotnomasi). Natijada oliy tibbiy taʼlim muassasasida

pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish motivlari, umumiy samaradorligini ifodalovchi xususiyatlarini empirik tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglarida kasbiy faoliyat motivlarini namoyon bo'lishi bosqichlari ilk davrlarda «o'zini himoyalash va o'zini namoyon etish», oraliq kamolot davrida «ijtimoiy e'tirof etilish va o'zidan qoniqish» yuqori rivojlanish davrida «kasbiy va moddiy o'sish» mazmunidagi ijtimoiy-psixologik omillarning ustuvorligi tufayli uch bosqichli iyerarxik tuzilma mezonlari asosida aniqlanganligiga doir ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 4 dekabrda PM-98-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 11 dekabrda PM-98 a-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglarining kasbiy motivlarini o'sib borish darajasiga ko'ra ijtimoiy-psixologik mohiyatini dalillashga erishilgan;

kasbiy faoliyatda funksional vazifalar aniq belgilanmaganligi sababli tashkiliy omil, hamkasblarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi tufayli rolli omil, jamoada o'zini ahamiyatsiz his etish oqibatida shaxslilik omillari bilan bog'liq sindromlarning kuchayib ketishi natijasida pedagoglarda kasbiy so'nish darajalari (hissiy toliqish, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlar reduksiyasi) kuzatilishi isbotlanganligiga doir ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 4 dekabrda PM-98-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 11 dekabr PM-98 a-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarining ijtimoiy-psixologik determinantlari sifatida faoliyat samaradorligi komponentlari, kasbiy so'nish omillari va xususiyatlarini empirik tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

pedagoglarning ijtimoiy mavqei jamoaga nisbatan munosabatlarini differensiallashuviga olib kelishi natijasida ta'lim muassasasida ishlashdan qoniqishi, hamkasblariga ko'maklashishi, jamoaning kayfiyati, pedagoglar ishining xayrixoh va xolisona baholanishi, hamkasblari bilan munosabatdan va ma'muriyatning g'amxo'rlikidan mamnunligi, pedagoglar o'zaro munosabatlarining ilmiy unvon hamda ilmiy darajalar mavqeiga ko'ra uyg'unligi va birligi ijtimoiy-psixologik muhitning ijobiylik hamda jamoaning jipsiligidagi yetakchi rol o'ynashi dalillanganligi bilan bog'liq ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023 yil 4 dekabrda PM-98-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Rivojlanish psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy 2023 yil 11 dekabr PM-98 a-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatida jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitning ta'siri, hayotiy qadriyatli munosabatlar ahamiyatini asoslashga erishilgan;

hayotiy maqsad va qadriyatlarning o'zgarib borishiga ko'ra kasbiy vazifalarni shakllantirishi, yashash maqsadlarini aniqligiga erishish orqali pedagoglar o'z faoliyatidan qoniqishi, o'z hayoti egasiga aylanishi, muammolar yuzasidan qaror qabul qilish va erkin boshqara olish qobiliyatlari «hayot mazmunining asosiy

komponentlari»ga aylanishi hisobiga har bir pedagogning jamoadagi ijtimoiy mavqeining o'sib borishida hayotiy qadriyatlarga munosabatning kuchaytirilishi ularning ekzistensial maqsadlarga erishishini ta'minlashi va shu orqali pedagogik jamoada shaxslararo munosabatlarga pozitiv tus beruvchi, ijobiy muhitni ta'minlovchi birlamchi ijtimoiy-psixologik determinantga aylanishi isbotlanganligi bilan bog'liq ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023 yil 4 dekabrda PM-98-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2023 yil 11 dekabr PM-98 a-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining yetakchi ijtimoiy-psixologik determinantlarini o'quv modullari va ijtimoiy mavqeiga ko'ra empirik o'rganish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 47 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 29 ta maqola, shundan 19 tasi respublika va 10 tasi xorijiy jurnallarda, 4 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 233 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, dissertatsion tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot rejaları bilan aloqadorligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan, ob'yekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining tatbiqi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlari tadqiqot predmeti sifatida**» deb nomlanib, unda tadqiqot muammosining nazariy-metodologik masalalari yoritilgan. Mazkur bobda buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Xorazmiy va boshqalarning ta'lim-tarbiya, ustoz-murabbiylar hamda shogirdlar faoliyatiga doir o'zaro munosabatlar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, zamonaviy psixologiyada kasb va kasbiy faoliyat borasidagi V.A.Bodrov, K.M.Gurevich, G.V.Kudryaev, Ye.A.Klimov, B.F.Lomov, K.K.Platonov, E.F.Zeyer, A.K.Markova, L.M.Mitina, V.B.Kulagin, S.P.Beznosovlarning pedagogik faoliyat xususiyatlariga bag'ishlangan, hamda N.V.Kuz'mina, A.I.Shcherbakov, V.V.Bogoslovskiy, A.D.Boborikin, Yu.V.Kojuxov,

V.A.Slastenin va boshqalarning tadqiqotlariga doir ilmiy natijalari tahlili berilgan. Ularning izlanish natijalarida pedagoglik kasbi muayyan mehnat faoliyati turi bo'lib, ularni bajarish uchun inson albatta, ma'lum bilimlar va ko'nikmalarga, maxsus qobiliyat va rivojlangan muhim kasbiy sifatlariga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlari muammosining ayrim jabhalari xorij va MDH mamlakatlari olimlari N.V.Kudryavaya, I.N.Denisov, V.R.Shurupova Ye.M.Ukolova, A.C.Molchanov, N.B.Smirnova, K.B.Zorin, I.I.Kosarev, M.Ya.Mudrov, N.M.Astafiyeva, A.W.Burgess, R.L.Epstein, Era Buck, S.M.Halpin, Julie Trumble, O.L.Kachan, Karen Szauter, Mainul Haque, Mark Clark, Mark Holden, I.S.Sever, G.Stricker, S.J.Trierweiler, J.D.Vermunt, Theo Wubbels va boshqalarning empirik tadqiqotlarida o'rganilganligi sharhlangan.

Biroq, dissertatsiyaning nazariy-metodologik masalalari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda ijtimoiy-psixologik omillar muammosini to'laqonli izohlovchi jihatlar o'rganilmaganligi sababli, oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyati mazmunini boyituvchi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarni tadqiq etish zarurati mavjud, degan xulosaga olib kelgan.

Dissertatsiyaning «**Oliy tibbiy ta'lim pedagoglari faoliyati ijtimoiy-psixologik determinantlarini o'rganishning metodologik ta'minoti va dastlabki empirik tahlillar**» nomli ikkinchi bobida muammoni o'rganishda foydalaniladigan nazariy-konsepsiyalarning mezonlari va tadqiqot metodikalarining tavsifi hamda metodologik asosi, tadqiqot ob'yektlarining xususiyatlari alohida bandlar bo'yicha tahlili bayon etilgan. Shuningdek, bobda oliy tibbiy ta'lim muassasalarida tibbiyot xodimlari pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishni ijtimoiy-psixologik sabablarining empirik natijalari keltirilgan.

Ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglar kasb tanlash davridayoq pedagoglik kasbini tanlaydi. Oliy tibbiy ta'lim yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning faoliyati esa o'ziga xoslikka ega. Bir tomondan, ular ta'lim muassasasida pedagog va ikkinchi navbatda, esa klinikada shifokor sifatida amaliyot bilan nazariyani o'zaro aloqadorlikda faoliyat olib borishlarini taqozo etadi. Shu o'rinda, oliy tibbiy ta'lim muassasalarida pedagoglar nafaqat «klinik moduli» balki, «klinik oldi moduli» (ximiya, biologiya, anatomiya, mikrobiologiya, biofizika, bioximiya...) va «ijtimoiy-gumanitar moduli» yo'nalishlarida ham faoliyat olib borishini e'tibordan chetda qoldirmaslik ta'kidlangan.

Tadqiqotda oliy tibbiy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyatini tashkil etish natijalari va xususiyatlarining ijtimoiy-psixologik determinantlarini tahlilida yuqoridagi uch modulda xodimlar faoliyati o'zaro taqqoslanishi ham ko'zda tutilgan. Biroq, ularning orasidan klinik modulida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning xususiyatlariga alohida murojaat qilingan.

Tadqiqotda 396 nafar klinik moduli, 207 nafar klinik oldi moduli, 88 nafar ijtimoiy-gumanitar modullari bo'yicha jami 691 pedagoglar jalb etilgan. Dastlab oliy ta'lim muassasasi pedagoglari, xususan, ular tibbiyot xodimi kasbini tanlagan, so'ngra esa shifokorlik bilan bir qatorda pedagog sifatida faoliyat olib borish sabablarini aniqlash uchun kasb tanlash motivlarining muhim jihatini o'rganishga murojaat

qilingan. Buning uchun, «Kasb tanlash motivlarini aniqlash» mualliflik so‘rovnomasidan foydalanilgan. So‘rovnoma asosida tibbiyot xodimlarining pedagog kasbi bilan shug‘ullanishining asosiy motivlariga oid natijalar qo‘lga kiritilgan (1-jadvalga qarang). Har bir motiv bo‘yicha pedagoglarning natijalari munosabat chastotasi (abs), foizli (%) va ranjirovka (rang) ko‘rsatkichida ifodalangan.

### 1-jadval

#### Oliy tibbiy ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish motivlari, N=396 (klinik moduli bo‘yicha)

№	Pedagog faoliyat shug‘ullanish motivlari	abs	%	rang
1.	Oilaviy an‘analar	18	4,55	9
2.	Ustozlarning maslahati	53	13,39	3
3.	Ota-onalarning tavsiyalari	13	3,28	10
4.	Nazariya bilan amaliyot uyg‘unligiga erishish	45	11,36	5
5.	Talabalar bilan o‘z yutuqlarini baham ko‘rish	60	15,15	2
6.	Tasodifiy holatlar	13	3,28	10
7.	Kasbiy o‘shiga erishish	47	11,87	4
8.	Tibbiyot bilan pedagogik faoliyatni uyg‘unlashtirish orqali kasbiy va shaxsiy kamolotni ta‘minlash	64	16,16	1
9.	O‘z bilimlarni boshqalarga o‘rgatish istagi	35	8,84	6
10.	Talaba-yoshlar bilan ishlashni yoqtirish	27	6,82	7
11.	Hayotiy vaziyat taqozosi bilan	21	5,30	8

Olingan empirik ko‘rsatkichlarga ko‘ra tibbiyot xodimlarining pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlarida eng yuqori motiv sifatida «Tibbiyot bilan pedagogik faoliyatni uyg‘unlashtirish orqali kasbiy va shaxsiy kamolotni ta‘minlash» e‘tirof etilgan (64 nafar, 16,16% va 1-rang). Ma‘lum nafar tibbiyot xodimlarining pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishida tibbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini ushbu kasb bilan uyg‘unlashtirish orqali kasbiy hamda shaxsiy o‘shiga erishishni ta‘minlashga qaratilganligi bilan ajralib turmoqda. Bu esa, tibbiyot xodimlari kasbiy va shaxsiy kamolotda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos o‘rni borligini anglab yetganligidandir. O‘z navbatida, ular o‘zlaridan oldingi ustozlari va hamkasblarining faoliyatini kuzatish orqali pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishni joiz, deb bilgan bo‘lishlari ham mumkin.

Ikkinchi ahamiyatli motivni talabalar bilan o‘z yutuqlarini baham ko‘rish (60 nafar, 15,15%, 2-rang) tashkil etdi. Bir jihatdan klinikadagi faoliyatida erishgan yutuqlarini bo‘lg‘usi tibbiyot xodimlari bilan baham ko‘rishga erishish ehtiyojini ko‘rsatgan. Bu holat gumanizm tamoyili, mas‘uliyat va burch hissiga ega shaxslarga xosdir. Uchinchi motiv esa «Ustozlarning maslahati»ni o‘zida aks ettirdi (53 nafar, 13,39%, 3-rang). Bu esa ayrim tibbiyot xodimlariga ularga tahsil bergan ustozlari maslahat berganliklaridan dalolat bermoqda. Ustozlar uzoq yillik tajribalari asosida tahsil olayotgan shogirdlarining pedagogik faoliyatga qobiliyati borligi va o‘z navbatida, tibbiyot sohasi bo‘yicha ham kompetentlikka egaligi sababli tavsiya etilganligi kuzatilgan.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishda ahamiyati kam bo'lgan motivlar sifatida oilaviy an'analar, ota-onalarining tavsiyalari va tasodifiy holatlar qayd etilgan. Jumladan, tibbiy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish oilaviy an'analar (18 nafar, 4,55%, 9-rang) bilan bog'liq holatlar ham uchralgan. Uzoq yillik kuzatishlarimizga asoslanib aytishimiz mumkinki, tibbiyot xodimlarining pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishida oilaviy an'analarni o'rni katta hisoblanadi. Bunday an'ana zamonaviy shaxslar faoliyatida ham ko'p uchraydi. Chunki oilaning katta vakillari tomonidan sinovdan o'tkazilgan reproduktiv tafakkur shakli xodimning ham shifokor, ham pedagog sifatida kasbiy o'sishini ta'minlaydi.

O'ninchi va o'n birinchi motivlarda ota-onalarning tavsiyalari (13 nafar, 3,28% va 10-rang) va tasodifiy holatlar (13 nafar, 3,28% va 10-rang) dan iborat. Motivlar mohiyatidan ayrim o'rinlarda farzandlarning hayotda inson sifatida kamol topishida pedagogik faoliyatning ahamiyatini ota-onalar tomonidan ijobiy baholanishi tufayli ularga pedagog sifatida faoliyat olib borishlarini taklif etadilar va buni o'z nazoratlariga olishlari ham mumkin. Shu o'rinda aytish mumkinki, ayrim tibbiyot xodimlari tasodif yoki turli vaziyatlar tufayli ham pedagog sifatida faoliyat yuritishga kirishgan ekan.

Bobda empirik talqinning davomi sifatida pedagoglarning shaxsiy imkoniyatlarini kasbiy faoliyati bilan moslashtira olish potentsiallari R.Shvarser, M.Erusalemning «Umumiy o'z-o'zini samaradorligini tashxislash» shkalasi yordamida tadqiq etilgan. Tadqiqotda 15 yildan yuqori mehnat stajiga ega bo'lgan pedagoglar ta'lim jarayonida, talabalar va hamkasblar bilan bog'liq muammoli holatlarda optimal va ijodiy yechim topishga erisha olishlari mumkin ekanligi aniqlangan. Shu o'rinda aytish mumkinki, spontan sodir bo'ladigan vaziyatlarga tushib qolish shaxsni stress va frustratsiyali holatlarga olib kelishi xos ekan.

Gender xususiyatlarga ko'ra pedagoglarning faoliyat samaradorligi indekslarida tafovutlar aniqlanmagan. Bundan ko'rinadiki, gender xususiyatlaridan qat'iy nazar pedagoglarda ishonch va e'tiqodi orqali murakkab muammolarni hal etuvchanlik, to'siqlar bartaraf etish va maqsad sari intilish, maqsadga erishish imkoniyatining yuqoriligi, kutilmagan vaziyatlarda o'zini tuta olish qobiliyati, kutilmagan qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyati, muammolarni hal etishga erishish, qiyinchiliklarni bartaraf etishda o'ziga ishonish, muammolarga nisbatan konvergent yondashuv, muammoli vaziyatlarga kreativ yechim topish, vaziyatni nazorat qilish qobiliyati mavjud.

Olingan empirik natijalar oliy tibbiy ta'lim muassasasidagi pedagoglarning o'quv modullariga ko'ra umumiy samaradorlik indeksleri klinik oldi, ijtimoiy-gumanitar modullariga nisbatan klinik moduli bo'yicha mashg'ulot olib borayotganlarda samaradorlik indeksi 32,01 ga tengligi, ularda samaradorlik o'rtachadan yuqori darajaga ega, degan xulosani bergan.

Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarining faoliyati samaradorlik indeksining barcha jabhalar bo'yicha tahlilida muammolarni bartaraf etishda konvergentlik, kreativlik va vaziyatlarni nazorat qilish qobiliyatlarini kuchaytirish zarurati mavjudligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatini tavsiflovchi ijtimoiy-psixologik jihatlarining empirik tahlili**» deb nomlangan. Bobda oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari kasbiy motivlarining namoyon bo'lish bosqichi va ularning ijtimoiy-psixologik ahamiyati ko'rsatkichlarini «Kasbiy faoliyat motivatsiyasi» (K.Zamfir metodikasi A.Rean tomonidan modifikatsiya qilingan) metodikasi yordamida aniqlashga erishilgan.

Oliy tibbiy ta'lim pedagoglari kasbiy faoliyat motivlarining shakllanishi uch bosqichli jarayon sifatida berilgan (2-jadvalga qarang). Birinchi bosqich, pedagoglarning kasbiy faoliyatida kuzatiladigan jazo yoki muammolardan qochishga intilish, pedagogik faoliyatida o'zini to'liq namoyon qila olish imkoniyatini o'z ichiga qamrab oluvchi motivlarda ifodalangan. Ushbu bosqich «O'zini himoyalash va o'zini namoyon etish» deb nomlangan. Bu bosqich pedagoglar kasbiy faoliyatida o'ta hushyorlik va e'tibor bilan yondashishlarini, o'zlarining imkoniyatlarini namoyon etishga va bu orqali jamoada o'z mavqelariga ega bo'lishga intilishlarini anglatgan.

Ikkinchi bosqich ijtimoiy obro'-e'tibor va boshqalar tomonidan hurmatga erishish ehtiyoji, rahbar yoki hamkasblar tanqididan qochishga intilish, jarayonning o'zidan va ish natijasidan qoniqish motivlaridan tashkil topgan. Ushbu bosqich pedagoglar kasbiy faoliyatida motivlar «ijtimoiy e'tirof etilish va o'zidan qoniqish» mazmuniga ega.

Uchinchi bosqichda esa pedagoglar faoliyatida o'ziga xos kasbiy o'sishni tavsiflovchi motivlar aks etgan. Mazkur bosqich ularda kasbiy va shaxsiy mavqe shakllanganligi, ijtimoiy-turmush tarzi hamda kasbiy faoliyatning moddiy rivojlanish bosqichiga o'tganligi bilan xarakterlanib, u «Kasbiy va moddiy o'sish» deb nomlangan.

## 2-jadval

### Oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari kasbiy faoliyat motivlarining namoyon bo'lish bosqichlari va ijtimoiy-psixologik ahamiyati (N=691)

Motivlar	Motivlarning kasbiy faoliyatda namoyon bo'lish bosqichi	Motivlarning umumiy mazmuni ifodasi
4. Bo'lishi mumkin bo'lgan jazo yoki muammolardan qochishga intilish	1-bosqich	O'zini himoyalash va o'zini namoyon etish
7. Pedagogik faoliyatda o'zini to'liq namoyon qila olish imkoniyati		
5. Ijtimoiy obro'-e'tibor va boshqalar tomonidan hurmatga erishish ehtiyoji	2-bosqich	Ijtimoiy e'tirof etilish va o'zidan qoniqish
3. Rahbar yoki hamkasblar tanqididan qochishga intilish		
6. Jarayonning o'zidan va ish natijasidan qoniqish		
2. Mutaxassislik pog'onasi bo'yicha ko'tarilishga intilish	3-bosqich	Kasbiy va moddiy o'sish
1. Pul daromadlari		

Empirik natijalar asosida pedagoglar kasbiy motivlarining psixologik modelini keltirishga erishilgan: ichki motiv (IM) = (Mutaxassislik pog'onasi bo'yicha ko'tarilishga intilish + Aynan mazkur faoliyatda o'zini to'liq namoyon qila olish imkoniyati)/2), ya'ni 3,62 koeffitsiyentga egaligini ko'rsatilgan.

Tashqi ijobiy motivlar (TIM) = (Pul daromadlari + Mutaxassislik pog'onasi bo'yicha ko'tarilishga intilish + Ijtimoiy obro'-e'tibor va boshqalar tomonidan hurmatga erishish ehtiyoji)/3), ya'ni 3.34 koeffitsiyentni ifodalagan. Ularda tashqi salbiy motivlar (TSM)=(Bo'lishi mumkin bo'lgan jazo yoki muammodan qochishga intilish + Rahbar yoki hamkasblar tanqididan qochishga intilish)/2) esa 3,32 miqdori qiymatga ega. Pedagoglarning kasbiy faoliyat motivlarining nisbiy ifodasiga ko'ra: IM>TIM>TSM ko'rinish olgan. Kasbiy faoliyat motivlarining psixologik modeliga ko'ra tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarida optimal darajadagi motivlar kompleksi mavjud ekan. Ushbu motivlardan kasbiy faoliyatda foydalanish esa ularning shaxsiy yondashuvlariga bog'liq.

Tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglarining kasbiy faoliyat motivlarining umumiy ko'rinishi nisbiy ijobiy xarakterga ega, ammo ularni ro'yobga chiqarish uchun esa qat'iyatli muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasiga zarurat mavjudligi qayd etilgan.

Mazkur bobda talabalar nigohida pedagoglarning kasbiy va pedagogik qobiliyatlari, shaxslilik xususiyatlari Ye.V.Suxovaning «Pedagog talabalar nigohida» anketasi yordamida tadqiq etilgan. Anketada pedagoglarning kasbiy, ijtimoiy, shaxsiy va axloqiy fazilatlarini baholash so'ralgan. Tadqiqotning ushbu bosqichida 916 nafar 1-6 kurs talabalari jalb etilgan. Tibbiy oliy ta'lim muassasasi pedagoglari timsoli bo'yicha talabalar tomonidan berilgan baholar uch yo'nalishga (pedagogning kasbiy qobiliyatlari, shaxslilik xususiyatlari, pedagogik qobiliyatlari) ajratilgan holda berilgan.

### 3-jadval

#### Tibbiy ta'lim muassasalari talabalari nigohida pedagog timsolining shaxslilik xususiyatlari ko'rsatkichlari (N=916)

Shkalala	O'rtacha rang va o'rin ko'rsatkichlari														H	p
	1-kurs		2-kurs		3-kurs		4-kurs		5-kurs		6-kurs		Umumiy			
	n=270	o'rin	n=119	o'rin	n=174	o'rin	n=105	o'rin	n=94	o'rin	n=154	o'rin	Umumiy	o'rin		
<b>Pedagogning shaxslilik xususiyatlari</b>																
1	270. 77	5	372. 25	5	559. 39	3	590. 35	1	629. 32	1	546. 34	1	494. 74	1	272. 49	0.000 **
2	374. 96	4	624. 89	1	670. 12	1	369. 18	4	193. 88	5	457. 76	3	448. 47	3	308. 10	0.000 **
3	563. 94	2	429. 79	4	356. 35	5	380. 17	3	351. 32	3	530. 23	2	435. 3	4	114. 92	0.000 **
4	580. 69	1	526. 94	3	627. 95	2	354. 81	5	207. 54	4	222. 05	5	420	5	382. 9	0.000 **
5	460. 04	3	532. 22	2	526. 53	4	476. 74	2	488. 11	2	291. 12	4	462. 46	2	88. 829	0.000 **

**Izoh:** Kraskul Uollis H-mezoni; \*\*-p≤0,01; 1 - Pedagogning talabalarga munosabati ijtimoiy me'yorlarga muvofiqi; 2 - O'qituvchining o'z predmetiga bo'lgan ishtiyoqi; 3 - O'qituvchining talabalarga yordam berishga qiziqishi; 4 - O'qituvchining qo'llab-quvvatlashi; 5 - O'qituvchining talabalar fikrini inobatga olishi.

Pedagogning shaxslilik xususiyatlariga talabalari tomonidan bildirilgan munosabatlarning ta'lim bosqichlariga ko'ra ifodalanishi 3-jadvalda berilgan. Tibbiy

ta'lim muassasasining har bir bosqich talabalari ustozlarining shaxsiy fazilatlariga munosabatlarida bir-biridan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlarni aks ettirgan.

1-kurs talabalari baholarini OTM pedagoglari bilan umumta'lim maktab o'qituvchilarining ta'lim oluvchilarga munosabatidagi farqni ko'ra olganlar, deyish mumkin. 2-kurs talabalarining baholari asosan klinik oldi va ijtimoiy-gumanitar modullari pedagoglariga tegishli taassurotlariga tayanilgan. 3-kurslar ustozlari talabalarga yordam berishdan ko'ra ular asosiy e'tiborni o'z predmetiga bo'lgan ishtiyoqda aks ettirishini ko'rsatib o'tishgan.

4-kurs talabalarida bir necha modullar bo'yicha pedagoglarni taqqoslash imkoniyati bor. Chunki aynan ushbu kursdan boshlab talabalarga klinik moduli pedagoglari o'quv mashg'ulotlar olib borishadi. Ushbu kurs talabalari tomonidan ustozlari uchun eng muhim fazilat sifatida munosabatlarini ijtimoiy me'yorlarga moslashtira olganliklaridadir, deya baholangan. 5-kurs talabalarining fikriga ko'ra esa, ularning ta'lim bosqichlari o'sib borishiga qarab ustozlari munosabatlarni me'yorlashtirishga qaratishlari hamda talabalar fikrini inobatga olishlari kuzatilgan.

Pedagoglarning shaxslilik sifatlarida 6-kurs talabalarining bildirgan baholarida xuddi 4 va 5 kurs talabalari singari ustozlari munosabatlarni me'yorlashtira olishlarida, deb bildirgan bo'lsalar, farqli tomoni esa o'qituvchining talabalarga yordam berishga qiziqishi umumiy ko'rsatkichlar bilan bog'lanib ketayotgandek taassurotni uyg'otgan.

Talabalar pedagoglarining shaxslilik fazilatlariga bergan baholarini umumiy ifodasida quyidagicha holat aniqlangan: pedagogning talabalarga munosabati ijtimoiy me'yorlarga muvofiqligi (1-o'rin), o'qituvchining talabalar fikrini inobatga olishi (2-o'rin), o'qituvchining o'z predmetiga bo'lgan ishtiyoqi (3-o'rin), o'qituvchining talabalarga yordam berishga qiziqishi (4-o'rin), o'qituvchining qo'llab-quvvatlashi (5-o'rin). Bundan ko'rinadiki, tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglarining talabalarga munosabati me'yorda va hamkasblari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni kuchaytirish esa maqsadli bo'lar ekan.


Tibbiy ta'lim pedagoglari kasbiy qobiliyatlarining umumiy tavsifi quyidagicha: zarur amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyati (1-o'rin), talabalarni kasbni egallashga o'rgatishda kasbiy malakalaridan foydalanish (2-o'rin), pedagogning kompetentligiga ishonch (3-o'rin), pedagogning amaliy misollari (4-o'rin), o'quv fanida mutaxassislikning istiqbolini namoyon etishi (5-o'rin), amaliy ko'nikmalarga o'rgatish (6-o'rin). Bundan ko'rinadiki, tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari kasbiy faoliyatida umumiy tarzda talabalarni amaliy ko'nikmalarga o'rgatishda qisman oqsashlar mavjud.

Talabalar ustozlarining pedagogik qobiliyatiga bildirgan munosabatlarining umumiy ko'rinishi quyidagi manzaraga ega bo'lgan: mashg'ulotlarda o'yin texnologiyalarini qo'llay olishi (1-o'rin), o'qitishda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishi (shu jumladan pedagogik diagnostika uchun) (2-o'rin), o'qituvchi tomonidan qiyin savollarni takroriy aniqlashtirilishi (3-o'rin), bilimlarni xolis baholay olishi (4-o'rin), o'qituvchi talabalar bilan qaytuvchan aloqa o'rnatish olishi (5-o'rin), mashg'ulotlarda media va audio fayllardan foydalanishi (6-o'rin), o'qituvchi qo'shimcha ma'lumot taqdim etishi (7-o'rin). Umumiy baholash holatiga asoslanib, tibbiy ta'limda o'yin texnologiyalari yoki zamonaviy ta'lim

texnologiyalarini joriy etishga e'tibor ortmoqda. AKTni qo'llash esa pedagoglarning muhim qobiliyatiga aylanishi zarur. Pedagoglar tomonidan tushunmagan topshiriqlarga aniqlik kiritish ta'limdagi shaxs omili ahamiyatini oshirishi e'tirof etilgan.

Ushbu bobda K.Maslach va S.Jeksonning (N.E.Vodop'yanova va Ye.S.Starchenkova modeli) «Kasbiy so'nish» metodikasini qo'llab bir qator empirik ko'rsatkichlar yoritilgan. Kasbiy so'nish darajalari (hissiy toliqish, depersonalizatsiya, shaxsiy yutuqlar reduksiyasi) pedagoglarning ish stajiga ham bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan, sinaluvchilarning ish stajiga (3-5 yillik, 5-15 yillik, 15 yildan ko'p) ko'ra ham olingan natijalar tahlil qilingan.


Kasbiy so'nishning «hissiy toliqish» darajasi 3-5 yillik ish stajiga ega bo'lgan 9% da yuqori va 12% da esa o'ta yuqori, 5-15 yillik ish stajidagilarning 15% yuqori, 26% o'ta yuqori, 15 yildan ko'p tajribiga ega pedagoglarning 24% esa yuqori hamda 34% da o'ta yuqori ekanligi aniqlandi (1-rasmga qarang). Demak, emotsional tonus kamayishi, aqliy charchash, atrof – muhitga va boshqa insonlarga nisbatan qiziqish va ijobiy munosabatlarni yo'qolganligi, ishga nisbatan «to'yinish» hamda hayotdan qoniqmaslik hissi, pedagogning muayyan bir ish turi bilan muntazam shug'ullanishi hissiy toliqish darajasini ortishiga olib kelar ekan. Ushbu holatni davriy ish rejimi aynan «inson-inson» kasb doirasida faoliyat olib boruvchilarning psixik salomatligiga, ularda emotsional tonus kamayishi, ish qobiliyati va faolligining pasayishi, o'z faoliyati jarayonidagi stressorlarga nisbatan tolerantlikni shakllantirmasligi bilan izohlangan.



**1-rasm. Pedagoglarning ish staji bo'yicha «hissiy toliqish» darajasi ko'rsatkichlari (N=113)**


Pedagoglarning ish staji bo'yicha «depersonalizatsiya» darajasi ko'rsatkichlari 3-5 yillik ish stajiga ega bo'lgan 24% o'ta yuqori va 27% yuqori, 5-15 yillik ish stajidagi 24% o'ta yuqori va 28% yuqori, 15 yildan ko'p ish stajidagi respondentlarning 27% da o'ta yuqori hamda 30% yuqori darajasi kuzatildi, 2-rasmga qarang. Mazkur bir-biridan katta farqlanmagan ko'rsatkichlar pedagog faoliyatidagi shaxslararo munosabatlarning deformatsiyalashishiga ish stajining qiymati ta'siri deyarli sezilmaydi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'rta (3-5 yillik ish staji -32%), (5-15 yillik ish staji - 35%), (15 yildan ko'p ish staji - 39%) hamda past darajadagi ko'rsatkichlar (3-5 yillik ish staji - 10%), (5-15 yillik ish staji - 9%), (15 yildan ko'p

ish staji - 11%) orasidagi katta tafovutlar mavjud emasligi, ushbu yo‘nalishda yangi izlanishlarga yo‘l ochmoqda.



**2-rasm. Pedagoglarning ish staji bo‘yicha «depersonalizatsiya» darajasi ko‘rsatkichlari (N=113)**

«Shaxsiy yutuqlar reduksiyasi» darajasi natijalari ko‘ra (3-rasmga qarang), ish stajining kamligi o‘z kasbiga nisbatan kompetentlik darajasi yetarli ekanligiga shubhalanish holatini (3-5 yillik ish stajiga ega bo‘lgan 29% da yuqori) keltirib chiqarishi, o‘z-o‘zidan qoniqmasligi, o‘z faoliyati qiymatining pasayishi, kasbiy sohada salbiy o‘z-o‘zini anglashi, kasbiy yutuq va muvaffaqiyatlarini salbiy baholashi yoki o‘z layoqati, imkoniyati, mas’uliyatini cheklashda namoyon bo‘lishi mumkin ekan. O‘rta qiymatga ega (23% - 5-15 yillik ish staji, 25% - 15 yildan ko‘p yillik staj) respondentlar erishilgan haqiqiy yutuqlarning ahamiyatini past baholashi, shaxsning kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtira olmasligi o‘zi va boshqalardan qoniqmaslikka olib keladi, deya izohlangan.



**3-rasm. Pedagoglarning ish staji bo‘yicha «shaxsiy yutuqlar reduksiyasi» darajasi ko‘rsatkichlari (N=113)**

Kasbiy shakllanish me‘yorda kechayotgan (5-15 yil - 35%) respondentlar o‘z kasbiy pozitsiya, o‘ziga xos faoliyatning individual uslubi, malakali mehnat mahsuldorligi, kasbiy jamoada identifikatsiya, kasbiy safarbarlik, jamoani hisobga olish, moslashuvchan ish uslubi, yuqori malakali kasbiy faoliyat yuritadi, deb baholashimiz mumkin bo‘ladi. Albatta, 15 yildan ko‘p ish tajribasi davri kasbiy rivojlanishning eng yuqori (akme) cho‘qqisi hisoblanadi. Bu esa, mazkur 30% pedagoglarda yuqori kasbiy motivatsiya, mahsuldor natijali faoliyat, optimizm va ishga

qiziqish, kasbiy kompetentlik va o‘z-o‘zini adekvat baholay olishlik, hamkorlikda ishlashda muvaffaqiyat darajasiga erishganlik xosdir.

Ushbu holatga yana bir bora aniqlik kiritish uchun V.V.Boykoning «Emotsional aloqalarni o‘rnatishda «to‘siqlar» diagnostikasi» metodikasidan foydalanilgan. Olingan empirik natijalar shuni ko‘rsatdiki, oliy tibbiy ta’lim muassasasi pedagoglarida kasbiy so‘nishdagi alomatlarining kuzatilishiga sabab emotsional aloqalardagi to‘siqlar bo‘lishi ham mumkin ekan.

Pedagoglarda kasbiy so‘nishning profilaktikasi kompleks, psixologik, tashkiliy va psixik buzilish holatini to‘g‘rilashga va zarur bo‘lganda jamoaning psixologik muhitini yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan pedagoglarning ruhiy salomatligini saqlash bo‘yicha aniq maqsadli ishlarni tashkil etishga katta e’tibor berilishi lozim.

Dissertatsiyaning «**Oliy tibbiy ta’lim muassasalari pedagoglari faoliyati xususiyatlarining tavsiflovchi ijtimoiy-psixologik determinantlarni empirik o‘rganish**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida pedagoglar jamoasi tadqiq etilgan. Dastlab V.S.Ivashkin, V.V.Onufriyevaning «Jamoadagi psixologik jipslik darajasini aniqlash» metodikasi yordamida olingan natijalarning chastotali tahliliga murojaat qilingan, 4-jadvalga qarang.

Jadvaldagi natijalarning chastotali tahlilida pedagoglarning jamoaviy jipslik bo‘yicha munosabat ko‘rsatkichlarida ishbilarmonlik sifatlarining ahamiyatini 177 nafar (25,58%) past, 333 nafar (47,98%) o‘rtacha, 181 nafari esa (26,44%) yuqori deb baholaganlar. Bundan ko‘rinadiki, pedagoglar jamoadagi asosiy vazifalarni bajarish va kasbiy topshiriqlarni ijrosi bo‘yicha har doim ham o‘rtacha yoki yuqori darajada emaslar. Bu esa, ular faoliyatining yaxlit samaradorligini ta’minlashga xizmat qila olmaydi.

#### 4-jadval

#### Oliy tibbiy ta’lim muassasalaridagi jamoaviy jipslikni tavsiflovchi sifatlar va jipslik indeksining chastotali tahlili ko‘rsatkichlari, N=691

Mezon va shkalalar		Ishbilarmonlik sifatleri		Axloqiy sifatleri		Emotsional sifatler		Jipslik indeksi	
		abs	foiz	abs	foiz	abs	foiz	abs	foiz
Jipslik darajalari tanlash chastotasi	Quyi	177	25.58	199	28.75	150	21.7	204	29.5
	O‘rta	333	47.98	364	52.75	351	50.9	143	20.6
	Yuqori	181	26.44	128	18.50	190	27.4	344	49.9
	Jami	691	100.0	691	100.0	691	100.0	691	100.0

O‘z navbatida, tibbiy ta’lim muassasasidagi jamoaviy jipslikni ta’minlashda axloqiy sifatlarining o‘rni esa 199 nafar (28,75 %) quyi, 364 nafar (52,75%) o‘rtacha, 128 nafari esa (18,50%) yuqori ahamiyatlilik darajasini belgilagan. Pedagogik jamoadagi axloqiy sifatlar uning a’zolari tomonidan o‘zaro his-tuyg‘ular va baholar, boshqalarning so‘zlari va harakatlariga, shuningdek, o‘zaro hurmat omillariga bir xil munosabatda ekanliklarini ifodalaydi. Jamoa a’zolarining o‘zaro bir-birlari bilan munosabatlaridan qoniqishlari, hamkorlikda qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishlari hamkorlik faoliyatlari samaradorligini belgilab beradi. Bu borada

pedagogik jamoadagi jipslikda axloqiy sifatlarning namoyon bo'lishi o'rtacha daraja bilan cheklangan.

Pedagogik jamoadagi jipslikda emotsional sifatlarning namoyon bo'lish xususiyatlarida quyidagi empirik qiymatlar aks etdi: 150 nafar (21,7%) quyi, 351 nafar (50,9%) o'rtacha, 190 nafari esa (27,4%) yuqori qiymatga ega. Bu jamoa a'zolarining kechinmalari, emotsional munosabatlari, emotsional baholari, emotsional idrokidagi o'ziga xoslikni ifodalab, jamoaning amalga oshirishi kerak bo'lgan g'oyaviy e'tiqodi va ishonchlarini belgilab beradi. Pedagogik jamoaning barcha a'zolarida ham jamoaning oliy maqsadlarini amalga oshirishda boshqa hamkasblari bilan hamjihatlik bo'lavermas ekan.

Pedagogik jamoaning jipslik indeksini respondentlarning 204 nafari (29,5% - 1 ball) quyi, 143 nafari (20,6% - 2 ball) esa o'rtacha, 344 nafari (49,9% - 3 ball) esa yuqori, deb baholagan. Umumiy ball ko'rsatkichi esa 2,20 ballni tashkil etdi. Bu esa metodikaning me'yoriy ko'rsatkichiga ko'ra jamoaning jipsligi o'rtacha daraja, degan xulosani bergan.

### 5-jadval

#### Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagogik jamoalaridagi ijtimoiy-psixologik muhit ko'rsatkichlari, N=691 (o'quv modullari bo'yicha)

Shkalalar	O'rtacha rang ko'rsatkichi			H	p
	Klinik moduli, N=396	Klinik oldi moduli, N=207	Ijtimoiy – gumanitar moduli, N=88		
1	175.50	170.60	168.56	16.175	0.725
2	165.79	175.65	167.04	16.109	<b>0.025*</b>
3	144.74	144.05	110.95	50.661	<b>0.000**</b>
4	147.61	155.05	155.97	16.756	<b>0.015*</b>
5	165.05	154.56	144.04	7.107	0.150
6	154.75	154.09	169.75	7.577	0.157
7	171.47	157.15	156.56	15.77	<b>0.034*</b>
8	151.61	147.75	175.54	24.057	<b>0.001**</b>
9	156.01	155.06	149.96	7.647	0.557
10	167.04	170.65	161.19	6,570	0.516
11	159.71	159.45	151.17	6.057	0.741
12	166.70	176.76	156.14	9.667	0.099
13	171.65	165.65	149.66	5.177	0.594
14	164.65	165.67	166.79	36.669	0.370
15	144.66	145.79	154.56	30.694	0.302
16	157.07	177.55	155.97	7.455	0.190

**Izoh:** Kraskul Uollis H-mezoni; \*-p≤0,05; \*\*-p≤0,01; 1 – Ta'lim muassasasidagi ishlash tartibidan qoniqish; 2 – Hamkasblari bilan munosabatdan qoniqish; 3 – Ma'muriyatning g'amxo'rliqi; 4 – Hamkasblarning ishda yordam berishga tayyorligi; 5 – Jamoadagi kayfiyat; 6 - Jamoadagi madaniy-intellektual muhit; 7 – Ta'lim muassasasi faoliyati yuzasidan fikr va takliflaringizni ma'muriyat tomonidan tinglanishi; 8 – Madaniy tadbirlar, birgalikda dam olish; 9 – Pedagoglar ishining xayrixoh va xolisona baholanishi; 10 – Jamoaning ishga munosabati; 11 – Ta'lim muassasasidagi ishlash tartibidan qoniqish; 12 – Jamoadagi ijodiy muhit; 13 – Pedagogning rahbarlar bilan munosabatidan mamnunligi; 14 – Pedagoglarning harakatlarining uyg'unligi va birligi; 15 – Talabalarning ta'lim muassasasiga munosabati; 16 – O'quv va moddiy baza.

Shuningdek, mazkur bobda oliy tibbiy ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-psixologik muhit R.X.Shakurovning «Jamoadagi psixologik muhitni o'rganish» so'rovnomasi yordamida tadqiq etilgan, 5-jadvalga qarang.

Pedagogik jamoadagi psixologik muhit borasida klinik va klinik oldi modullari bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagogik jamoa a'zolari tomonidan tavsiflovchi asosiy ijtimoiy-xususiyatlar sifatida bir qator jabhalar keltirib o'tilgan, ya'ni ularda ta'lim muassasa ma'muriyatining g'amxo'rliqi bo'yicha (144,84 va 144,05;  $H=50,661$ ,  $p<0,01$ ) ijtimoiy-gumanitar modullarda faoliyat olib borayotgan pedagoqlardan tafovut qilar ekan. Tibbiy ta'lim muassasasi rahbariyatining pedagogik jamoadagi psixologik iqlimni yaxshilashda klinik va klinik oldi modullarida ustuvorlik kuzatilgan. Bu esa, ushbu modullar bo'lg'usi tibbiyot xodimlarini tayyorlashdagi asosiy kafedralar bo'lganligi sababli e'tibor qaratilayotgan bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik masalalar bo'yicha esa hamkasblarining ishga yordam berishga tayyorligi borasida klinik oldi va ijtimoiy-gumanitar moduli pedagoqlari hamkasblarini qo'llab-quvvatlashga shayliklarini ko'rsatgan (155,05 va 155,97;  $H=16,756$ ,  $p<0,05$ ). Demak, ushbu modul bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagoqlar jamoasidagi o'ziga xoslikda hamkasblarini qo'llab-quvvatlash muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Bu ularning bir-birlarini tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlarini belgilagan.

Ta'lim muassasasi faoliyati yuzasidan fikr va takliflaringizni ma'muriyat tomonidan tinglanishi bilan bog'liq munosabatlarda esa klinik modullari pedagoqlari qolgan ikki modul vakillaridan ustuvorlikka ega ekan (171,47;  $H=15,773$ ,  $p<0,05$ ). Bu jihat klinik modul jamoalari tibbiyot ta'lim yo'nalishlarini kasbiy tayyorgarligi borasida o'z takliflarini berib borishda qolgan ikki modulga nisbatan ustunlikka egaligi ham psixologik muhitni yaxshilanishiga xizmat qilar ekan. Madaniy tadbirlarni tashkil etish va birgalikda dam olishda ijtimoiy-gumanitar modul pedagog jamoasi klinikaga oid har ikkala modullardan ustunlikka ega ekan (175,54;  $H=24,057$ ;  $p<0,01$ ). Ijtimoiy-gumanitar modul bo'yicha pedagogik jamoalar tibbiy muassasalarda madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'z navbatida, hamkasblar tomonidan birgalikda bayram hamda kechalarni nishonlashdagi ustuvorlik ularning sohalari xususiyati bilan bog'liqligi hamda ijtimoiy faolliklari sabablidir.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi pedagogik jamoalari a'zolarining o'z jamoalaridan qoniqishdagi bir xil munosabatlar, pedagoqlar ishining xayrixoh va xolisona baholanishi, jamoaning ishga munosabati, ta'lim muassasasidagi ishlash tartibidan qoniqish, jamoada ijodiy muhit, pedagogning rahbarlar bilan munosabatidan mamnunligi, pedagoqlar harakatlarining uyg'unligi va birligi, talabalarning ta'lim muassasasiga munosabati, o'quv va moddiy bazaning ahamiyatini bir xil baholagan.

Mazkur bobda D.A.Leontyevning «Hayot mazmuniga yo'nalganligi» metodikasidan foydalanilgan. Pedagoqlarning o'quv modullari bo'yicha hayot mazmuniga yo'nalganlik holati tahlilida statistik farqli ko'rsatkichlar aniqlanmaganligi bois, ular ijtimoiy mavqeining barcha bosqichlari bo'yicha ko'rib chiqish lozim, deb topilgan. Tibbiy oliy ta'lim muassasalari pedagoqlarining professor ilmiy unvoni va fan doktori ilmiy darajasiga ega

bo'lganlarning hayot mazmuniga yo'nalganlik shkalalarining ko'rsatkichlarida ijobiy korrelyatsiyalar aniqlangan, 6-jadvalga qarang.

**6-jadval**

**Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarining hayot mazmuniga yo'nalganlik ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik, N=24**  
(fan doktori va professorlar bo'yicha)

Shkalalar	Hayotdagi maqsadi	Hayotiy jarayon	Hayotdagi natijalari	Men-lokus nazorat	Hayot-lokus nazorat
Hayotdagi maqsadi	1	0,731**	0,749**	0,753**	0,947**
Hayotiy jarayon		1	0,532**	0,565**	0,550**
Hayotdagi natijalari			1	0,817**	0,862**
Men-lokus nazorat				1	0,838**
Hayot-lokus nazorat					1

Izoh:\*\*-  $p \leq 0,01$ .

Fan doktori va professorlardan iborat pedagoglar hayotda va kasbiy faoliyatda ijtimoiy kutilmalari bo'yicha ma'lum darajadagi natijalarga erishganliklari haqiqatdir. Ularning hayotda va kasbiy faoliyatda erishgan yutuqlarining o'ziyoq aniq maqsadlar qo'yish qobiliyatiga ega ekanligining natijasidir ( $r=0,731$ ;  $p \leq 0,01$ ), o'tmish tajribalari bugungi kun uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda, erishgan yutuqlari reallikda o'z aksini topgan ( $r=0,749$ ;  $p \leq 0,01$ ), sub'yektiv nazorat mexanizmiga egaki, u Men-lokus nazorat tizimida ishlaydi ( $r=0,753$ ;  $p \leq 0,01$ ), hayotda va kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari yetarlicha, hayotlarini erkin boshqarish tajribalari yuqori ( $r=0,947$ ;  $p \leq 0,01$ ) ekan.

Mazkur pedagoglar o'z hayotlarining mazmuniga ega, hayotdan mamnun va hayot mazmuni yangiliklarga boy ( $r=0,532$ ;  $p \leq 0,01$ ), erishgan natijalari hisobida o'z hayotlarining asosiy xo'jayini va erkin mulohazali ( $r=0,565$ ;  $p \leq 0,01$ ) ekanligini namoyon qilgan. Ular hayotlarini mazmunli tashkil etishga erishish barobarida barcha rejalarini amalga oshirishni biladilar, hayotda to'g'ri qaror qabul qilishda mahoratlidirlar ( $r=0,550$ ;  $p \leq 0,01$ ). Professor, fan doktorlaridan iborat pedagoglar Men-lokus nazoratni o'zlashtirib ( $r=0,817$ ;  $p \leq 0,01$ ), hayotlarida to'liq erkinlikka erishganlar ( $r=0,862$ ;  $p \leq 0,01$ ). Shuningdek, ular o'zlarining sub'yektiv nazoratlari orqali hayotlarining uch davrini (o'tmish, bugun va kelajak) o'zaro bog'lay olganlar ( $r=0,838$ ;  $p \leq 0,01$ ).

**7-jadval**

**Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarining hayot mazmuniga yo'nalganlik ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik, N=150**  
(fan nomzodi, falsafa doktori va dotsentlar bo'yicha)

Shkalalar	Hayotdagi maqsadi	Hayotiy jarayon	Hayotdagi natijalari	Men-lokus nazorat	Hayot-lokus nazorat
Hayotdagi maqsadi	1	0,494**	0,849**	0,821**	0,956**
Hayotiy jarayon		1	0,596**	0,575**	0,482**
Hayotdagi natijalari			1	0,851**	0,917**
Men-lokus nazorat				1	0,888**
Hayot-lokus nazorat					1

Izoh:\*\*-  $p \leq 0,01$ .

Professor, fan doktorlari singari fan nomzodi, falsafa doktori va dotsentlarning hayot mazmuniga yo‘nalganliklari bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahliliga murojaat qilingan, 7-jadvalga qarang.

Fan nomzodi, falsafa doktori va dotsentlardan iborat respondentlarning hayot mazmuni ko‘rsatkichlarida ham ijobiy o‘zgarishlar aniqlangan. Ularda ham o‘zlarining hayotiy va kasbiy faoliyatida erishgan ijtimoiy mavqelari hayotda maqsad qo‘yish va unga erishish bo‘yicha tajribali ekanliklaridan dalolatdir ( $r=0,494$ ;  $p\leq 0,01$ ). Ular tajribalarini vaqtga va vaziyatga mos qo‘llay oladilar, chunki natijalari haqqoniy ( $r=0,849$ ;  $p\leq 0,01$ ). Mazkur pedagoglar sub‘yektiv nazorat mexanizmini o‘zlashtirish ( $r=0,821$ ;  $p\leq 0,01$ ), hayot va kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega, hamda o‘zlarini erkin boshqarish tajribalari yuqori ( $r=0,956$ ;  $p\leq 0,01$ ) ekan. Shuningdek, ular hayotda ma‘no hosil qilib, o‘z hayotidan mamnun va uni mazmunini yangiliklar bilan boyita olganlar ( $r=0,596$ ;  $p\leq 0,01$ ). Ularning hayotiy tajribalari o‘z hayotlarini erkin boshqarish, o‘z hayotining egasi sifatida faoliyat olib borishlariga xizmat qiladi ( $r=0,575$ ;  $p\leq 0,01$ ). Hayotlarida mazmunli va rejali ish yuritadilar, to‘g‘ri qaror qabul qilishda qobiliyatli ( $r=0,482$ ;  $p\leq 0,01$ ), o‘zlarini mohirona nazorat qila oladi ( $r=0,851$ ;  $p\leq 0,01$ ) hamda yetarlicha erkindirlar ( $r=0,917$ ;  $p\leq 0,01$ ). Ular o‘z hayotlarining egasi sifatida maydonga chiqa olganlar ( $r=0,888$ ;  $p\leq 0,01$ ). Shuni unutmash lozimki, hayotning ma‘nosini izlash va topish bir martalik harakat emas, balki uzoq jarayon, uning o‘zgarishi inson hayoti davomida sodir bo‘ladi.

O‘qituvchi va katta o‘qituvchilarning hayotning mazmuniga yo‘nalganlik komponentlari bo‘yicha korrelyatsiyasi quyida keltirilgan, 8-jadvalga qarang. Mazkur respondentlarning ham hayot mazmuniga yo‘nalganlik ko‘rsatkichlarida ijobiy korrelyatsiyalar aniqlangan. Yosh pedagoglar o‘zlarining orzulari hisobida hayotiy maqsad belgilari orqali kasbiy faoliyatda erishgan ijtimoiy mavqelarini shakllantirmoqdalar ( $r=0,570$ ;  $p\leq 0,01$ ), ularning tajribalari boyib borish bosqichida ( $r=0,859$ ;  $p\leq 0,01$ ), o‘zlarining sub‘yektiv nazoratlariga ega bo‘lmoqdalar ( $r=0,848$ ;  $p\leq 0,01$ ), hayot va kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga kirishganlar ( $r=0,961$ ;  $p\leq 0,01$ ).

### 8-jadval

#### Oliy tibbiy ta‘lim muassasalari pedagoglarining hayot mazmuniga yo‘nalganlik ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘liqlik, N=517 (o‘qituvchi va katta o‘qituvchilar bo‘yicha)

Shkalalar	Hayotdagi maqsadi	Hayotiy jarayon	Hayotdagi natijalari	Men-lokus nazorat	Hayot-lokus nazorat
Hayotdagi maqsadi	1	0,570**	0,859**	0,848**	0,961**
Hayotiy jarayon		1	0,675**	0,655**	0,584**
Hayotdagi natijalari			1	0,861**	0,922**
Men-lokus nazorat				1	0,907**
Hayot-lokus nazorat					1

Izoh:\*\*- $p\leq 0,01$ .

Ular ham hayotiy mazmunlari uchun hayotdan quvonch va faoliyatdan qoniqish olishi, mamnun bo‘lishlari kuzatilmoqda ( $r=0,675$ ;  $p\leq 0,01$ ). Hayotiy tajribalarini boyitish tufayli o‘z hayotlarini xo‘jayiniga aylanishni maqsad qilganlar ( $r=0,655$ ;

$p \leq 0,01$ ). Hayotda yuqori natijalarga erishishda rejali va izchil faoliyat yuritishga, hayotiy qarorlar qabul qilishda qobiliyatlarini kamol toptirmoqdalar ( $r=0,584$ ;  $p \leq 0,01$ ). Nazoratning eng optimal shakliga ega bo'lishni anglab yetib, internal nazoratni tarkib toptirib ( $r=0,861$ ;  $p \leq 0,01$ ), hayotda erkinlik muhimligini anglaganlar ( $r=0,922$ ;  $p \leq 0,01$ ). Shuningdek, ular o'z hayotlarining egasi bo'lishga faol kirishib va uni shakllantirishda jonbozlik ko'rsatmoqdalar ( $r=0,907$ ;  $p \leq 0,01$ ).

Bugungi kunda jamiyat pedagoglardan ertangi kunning keskin noaniqlik sharoitlariga qaramay, mazmunli tanlov qilish va o'z hayoti hamda kasbiy yo'lini qurishni talab qiladi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, pedagoglar kelajagi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan holda, o'z xatti-harakati va faoliyatini maqsadli ravishda tartibga sola olmaydi, ijtimoiy va kasbiy hayotda yuzaga keladigan muammolar yechimini topolmaydi.

Mazkur bobda pedagoglar faoliyatini tavsiflovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar o'quv modullari, ijtimoiy mavqelariga ko'ra talqin etilgan. Ushbu empirik tahlillarning eng maqbul ko'rsatkichlaridan biri oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatini tavsiflovchi yetakchi ijtimoiy-psixologik determinantlar ko'rsatkichlari professor, fan doktorlari bo'yicha yoritilgan.

Professor, fan doktorlari faoliyatini tavsiflovchi birinchi determinant hayotning mazmuniga yo'nalganlik komponentlari: hayotdagi maqsadi (0,973), hayotiy jarayon (0,496), hayotdagi natijalari (0,862), men-lokus nazorat (0,915), hayot-lokus nazorat (0,992) hamda jamoadagi madaniy-intellektual muhit (0,406), madaniy tadbirlar, birgalikda dam olish (0,429), pedagoglar ishining xayrixoh va xolisona baholanishi (0,403), ta'lim muassasasidagi ishlash tartibidan qoniqish (0,676) dan iborat yuqori komponentlar tashkil etdi. Bu esa professor, fan doktorlarining pedagogik faoliyatini eng muhim ijtimoiy-psixologik komponentlari ularning hayotiy mazmuniga aylanganligi hisobida ta'minlanmoqda. Determinant **«Ekzistensial mazmunga erishish va pedagogik muhitni ta'minlash»** deb nomlandi. Bu jihatdan ilmiy unvon va ilmiy darajasi yuqori bo'lgan pedagoglarning faoliyati va erishgan yutuqlari ekzistensial mazmunga aylanganligi tufaylidir.

Ikkinchi determinantni esa, ishonch orqali murakkab muammolarni hal etuvchanlik (0,701), to'siqlar bartaraf etish va maqsad sari intilish (0,761), maqsadga erishish imkoniyatining yuqoriligi (0,471), kutilmagan vaziyatlarda o'zini tuta olish qobiliyati (0,492), kutilmagan qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyati (0,566), muammolarni hal etishga erishish (0,535), qiyinchiliklarni bartaraf etishda o'ziga ishonish (0,583), jamoadagi madaniy-intellektual muhit (0,403), jamoada ijodiy muhit (0,433), pedagogning rahbarlar bilan munosabatidan mamnunligi (0,435), talabalarning ta'lim muassasasiga munosabati (0,422), o'quv va moddiy baza (0,628), emotsiyani boshqara olmaslik (0,432), salbiy emotsiyalarning ustunligi (0,440) kabi yuqori vaznli koeffitsiyentlar tashkil etdi. Ushbu determinant oldingi metodikalarning xususiy holatlari bo'yicha professor, fan doktorlarining faoliyatini tavsiflashga xizmat qilmagan qator ustuvor xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. O'z navbatida, faoliyatni tavsiflovchi komponentlarni ifodalovchi ushbu determinant **«Faollik, hayotiy jarayon, jipslik, psixologik iqlim va salbiy emotsiyalarni boshqarish»** deb nomlandi.

Uchinchi determinant esa professor, fan doktorlari faoliyatining ham ijobiy, ham salbiy yuqori yuklamalardan iborat bo'ldi: axloqiy sifatlari (0,593), emotsional sifatlari (0,934), pedagoglar harakatlarining uyg'unligi va birligi (-0,514), talabalarning ta'lim muassasasiga munosabati (-0,407). Professor, fan doktorlari faoliyatini tavsiflovchi ushbu determinant «*Axloqiy va emotsional sifatlari*» tarzida ifodalandi. Determinantning mazmunini tashkil etuvchi komponentlarga ko'ra, ularning ilmiy darajasini oshib borishi hisobida professor, fan doktorlarida individualizm ham o'sar ekan.

To'rtinchi determinantda esa, kutilmagan vaziyatlarda o'zini tuta olish qobiliyati (0,435), hayotiy jarayon (-0,456), ishbilarmonlik sifatlari (0,467), emotsiya asosida odamlarni o'ziga yaqin olmaslik (0,430) dan iborat yuqori ijobiy va salbiy yuklamali koeffitsiyentlar o'rin oldi. Bu determinantga ko'ra «*O'zini boshqarish, faollik va individuallik*» tarzida nomlandi. Pedagoglarning ilmiy unvoni va darajasini o'sishi hisobida ayrim hollarda ularning atrofdegilar bilan subordinatsiya saqlash xususiyati shakllanish ehtimoli ham mavjud.

Beshinchi determinantni ishonch orqali murakkab muammolarni hal etuvchanlik (0,432), to'siqlarni bartaraf etish va maqsad sari intilish (0,413), kutilmagan qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyati (0,448), muammolarni hal etishga erishish (0,502), muammolarga nisbatan konvergent yondashuv (0,540), umumiy samaradorlik indeksi (0,572), jamoaning ishga munosabati (0,406), jamoada ijodiy muhit (0,458), pedagogning rahbarlar bilan munosabatidan mamnunligi (0,473), o'quv va moddiy baza (0,502) kabi yuqori yuklamalardan iborat koeffitsiyentlar tashkil etdi. Determinant «*Samaradorlik va ijtimoiy-psixologik muhit*» deb nomlandi. Bundan ko'rinadiki, pedagoglarning faoliyat samaradorligi jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitga ham bog'liq ekan.


Yuqorida sanalgan barcha omillar oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari kasbiy faoliyatining shartlovchi asosiy determinantlari sifatida ta'lim jarayonida tatbiq etish muhimdir.

Oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlarini tadqiq etishdan olingan empirik ko'rsatkichlar asosida «Oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari faoliyati ijtimoiy-psixologik jabhalarini optimallashtirish konsepsiyasi» va uning amalga oshirishni ta'minlash tizimi shakllantirilgan (4-rasm).

Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini optimallashtirish tuzilmasining dastlabki komponenti sifatida diagnostika tizimi belgilab olingan. Pedagoglar faoliyatining psixologik jabhalari diagnostikasi tibbiy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari erishgan yutuq va kamchiliklarini aniqlashga xizmat qiladi. Diagnostika tizimi pedagogning o'quv-uslubiy faoliyatining psixologik imkoniyatlari, kasbiy va pedagogik qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari, pedagogik jamoadagi muhit hamda faoliyatda uchraydigan kamchiliklarni o'rganadi.

Diagnostika tizimida aniqlangan natijalar asosida tibbiy oliy ta'lim tizimidagi pedagoglar faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va ularni barataraf etish chora-tadbirlari belgilangan. Ushbu bosqichda oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari faoliyatini tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish usullari, tadbirlari, ularning kasbiy-shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-

psixologik yo'llari, shuningdek, pedagogik faoliyatni samaradorligini ta'minlashda pedagogik jamoadagi muhitni optimallashtirish, kasbiy deformatsiyalarni bartaraf etish choralari amalga oshiriladi. Bu esa pedagoglar faoliyati dastlabki holatidagi o'zgarishlarni aniqlashga ko'maklashadi.



4-rasm. Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini optimallashtirish tizimi tuzilmasi

Mazkur tizim doimiy ravishda oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatini nazorat qilishni ta'minlaydi. Tizimning yakuniy bosqichida oliy tibbiy ta'lim pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini takomillashtirish yuzasidan amalga oshiriladigan monitoring tashkil etiladi.

Demak, tadqiqotda shakllantirilgan «Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini optimallashtirish» tizimi tibbiyot xodimlarini tayyorlaydigan oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash va ular bilan bog'liq muammolarning samarali yechimini ishlab chiqish hamda qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

«Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlari» mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot ishi natijalari quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari tibbiyot bilan pedagogik faoliyatni uyg'unlashtirish orqali kasbiy va shaxsiy kamolotni ta'minlash, talabalar bilan o'z yutuqlarini baham ko'rish, ustozlarning maslahatiga tayanish, kasbiy o'sishga erishish pedagog sifatida faoliyat yuritishlarining asosiy belgilovchi motivlari ekanligi aniqlandi.

2. Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarida ta'lim jarayoni va hayotiy muammolarni yechimini topishda o'ziga ishonch yetarli, to'siqlarni bartaraf etish va maqsad sari intilish, maqsadga erishish imkoniyatlari yuqori, kutilmagan vaziyatlarda o'zini tuta olish xos ekan, ammo ularda muammolarga nisbatan konvergent yondashuv, muammoli vaziyatlarga kreativ yechim topish va vaziyatni nazorat qilish qobiliyati yetarlicha namoyon bo'lmadi.

3. Oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglarida kasbiy faoliyat motivlarini namoyon bo'lish bosqichlarining ilk davrlarida «o'zini himoyalash va o'zini namoyon etish», oraliq kamolot davrida «ijtimoiy e'tirof etilish va o'zidan qoniqish» yuqori rivojlanish davrida «kasbiy va moddiy o'sish» mazmunidagi ijtimoiy-psixologik omillarning ustuvorligi tufayli uch bosqichli iyerarxik tuzilma mezonlari aniqlandi.

4. Kasbiy faoliyatda funksional vazifalar aniq belgilanmaganligi sababli tashkiliy omil, hamkasblarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi tufayli rolli omil, jamoada o'zini ahamiyatsiz his etish oqibatida shaxslilik omillari bilan bog'liq sindromlarning kuchayib ketishi natijasida, pedagoglarda kasbiy so'nish darajalari (hissiy toliqish, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlar reduksiyasi) kuzatilishi isbotlandi.

5. O'quv modullariga ko'ra tibbiy ta'lim muassasasidagi pedagogik jamoalarning ijtimoiy-psixologik muhitini belgilovchi psixologik omillar differensial xarakterga ega bo'lib, klinik moduli pedagogik jamoalarida ma'muriyatning g'amxo'rliqi, ta'lim muassasasi faoliyati yuzasidan fikr va takliflarning ma'muriyat tomonidan tinglanishi; klinik oldi moduli pedagoglari jamoasida esa hamkasblari bilan munosabatdan mamnunligi, ularga yordam berishga tayyorligi, ma'muriyatning g'amxo'rliqi; ijtimoiy-gumanitar modullar bo'yicha faoliyat olib borayotgan

pedagoglarda hamkasblarining ishiga yordam berishga tayyorligi, madaniy tadbirlarni tashkil etishligi pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik omillari sifatida baholandi.

6. Pedagoglarning ijtimoiy mavqelari jamoaga nisbatan munosabatlarining differensiallashuviga olib kelishi natijasida ta'lim muassasasida ishlashdan qoniqish, hamkasblariga ko'maklashish (o'qituvchi, katta o'qituvchi), jamoaning kayfiyati, pedagoglar ishining xayrixoh va xolisona baholanishi (fan nomzodi, falsafa doktori, dotsent), hamkasblari bilan munosabatdan va ma'muriyatning g'amxo'rligidan mamnunligi, pedagoglar harakatlarining uyg'unligi va birligi (fan doktori, professor) mulohazasiga ko'ra ijtimoiy-psixologik muhitning shartlovchi omillari sifatida ko'rsatildi.

7. Oliy tibbiy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan barcha toifa o'qituvchilarning munosabatiga ko'ra hayotdagi maqsadlari o'sib borishi sababli aniq maqsad-vazifalarni shakllantirishga, yashashdan maqsadlarining aniqligiga erishish orqali pedagoglar o'z faoliyatidan qoniqishi, o'z hayoti egasiga aylanishi, hayotiy muammolar yuzasidan qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi va hayotini erkin boshqara olishi «hayot mazmunining asosiy komponentlari» sifatida aniqlandi.

8. Tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglari ijtimoiy mavqeining o'sib borishi ta'sirida hayotiy qadriyatlarga munosabatni kuchayganligi sababli ekzistensial maqsadlarga erishish va pedagogik muhitni ta'minlash birlamchi ijtimoiy-psixologik determinant hisoblanadi.

9. Professor, fan doktorlarining faoliyatini tavsiflovchi birinchi determinantni hayotning mazmuniga yo'nalganlik komponentlari tashkil etdi: hayotdagi maqsadi, hayotiy jarayon, hayotdagi natijalari, men-lokus nazorat, hayot-lokus nazorat hamda jamoadagi madaniy-intellektual muhit, madaniy tadbirlar, birgalikda dam olish, pedagoglar ishining xayrixoh va xolisona baholanishi, ta'lim muassasasidagi ishlash tartibidan qoniqishdan iborat bo'ldi. Bu esa professor, fan doktorlarining pedagogik faoliyatini eng muhim ijtimoiy-psixologik komponentlari ularning hayotiy mazmuniga aylanganligi hisobida ta'minlanmoqda. Bu jihatdan ilmiy unvon va ilmiy darajasi yuqori bo'lgan pedagoglarning erishgan yutuqlari ular faoliyatini ekzistensial mazmunga aylanganligi tufaylidir. Determinant «Ekzistensial mazmunga erishish va pedagogik muhitni ta'minlash» deb nomlandi.

Oliy tibbiy ta'lim muassasa pedagoglari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy **tavsiyalar** berildi:

1. Oliy tibbiy ta'lim muassasalaridagi barcha o'quv modullar bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagoglarning tibbiyot xodimlarini tayyorlashda bir xil darajadagi ahamiyatga egaligini ta'minlash zarur.

2. Sog'liqni saqlash sohasi magistratura yo'nalishining barcha mutaxassisliklarini tayyorlashda hamda klinik o'quv modullari bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagoglarning malakasini oshirish kurslarida «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat» moduli mazmunini kuchaytirish kerak.

3. Bo'lg'usi tibbiyot pedagoglari uchun ta'lim muassasalarida «Yosh pedagoglar maktabi» nomli o'quv-uslubiy va ilmiy maslahat hamda pedagogik-psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtiruvchi qisqa muddatli kurslarini joriy etish lozim.

4. Tibbiy ta'limda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy pedagogik kompetensiyasini yanada takomillashtirish, psixologik bilimdonligini oshirish uchun masofaviy-texnik ta'lim kurslari, platformalari va sun'iy intellekt vositalaridan muntazam samarali foydalanishni ta'minlash zarur.

5. Oliy tibbiy ta'lim muassasalaridagi barcha o'quv modullari pedagogik jamoalari o'rtasida hamkorlik muhitiga asoslangan ilmiy-amaliy anjumanlar, ko'ngilochar tadbirlar, binar o'quv mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish kerak.

6. Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari faoliyatini psixologik jihatdan takomillashtirish bo'yicha soha mutaxassislarining o'zaro hamkorligida respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-anjumanlar tashkil etish muhim.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ФЕРГАНСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ ОБЩЕСТВЕННОГО  
ЗДОРОВЬЯ**

**ШОЙИМОВА ШОХИСТА САНАКУЛОВНА**

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГОВ ВЫСШИХ МЕДИЦИНСКИХ  
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ**

**19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДОКТОРСКОЙ ДИССЕРТАЦИИ (DSc)  
ПО ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2024**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей Аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2023.3.DSc/P133.**

Диссертация выполнена в Ферганском медицинском институте общественного здравоохранения.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Научного совета [www.psi-ik.uz](http://www.psi-ik.uz) и на Информационном образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net))

**Научный руководитель:** **Умаров Бахриддин Менгбоевич**  
доктор психологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Каримова Василя Маманосировна**  
доктор психологических наук, профессор

**Абдуллаева Шоира Хамидовна**  
доктор психологических наук (DSc), профессор

**Собирова Дилафруз Абдурозиковна**  
доктор психологических наук (DSc), профессор

**Ведущая организация:** **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_ часов на собрании Научного совета PhD.03/30.12.2021.P.26.02 по присуждению научных степеней при Ташкентском государственном педагогическом университете, (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32; факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована под номером \_\_\_\_). Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32; факс: (+99871) 276-76-51

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года  
(Протокол реестра № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года).

**Акрамова Ф.А.**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
психологических наук (DSc), и.о. профессор

**Атабаева Н.Б.**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученой степеней, доктор  
психологических наук (DSc), и.о. профессор

**З.Т.Нишоновна**  
Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор психологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Человеческая жизнь и его здоровье является в мире высшей ценностью. Требования к деятельности педагогов медицинских учреждений, направленной на укрепление здоровья человека, лечению возникающих заболеваний, реабилитацию и профилактику, всегда актуальны и значимы. В частности, в качестве одного из показателей, определяющих эффективность деятельности преподавателей высших медицинских учебных заведений, уместно привести вклад, который они вносят в здоровье человека. Согласно мировому рейтингу высших учебных заведений, 16 профессоров и выпускников Университета Джона Хопкинса являются Нобелевскими лауреатами, а в Йельском университете 70 преподавателей, работающих в области медицины, признаны членами Национальной академии США, а 47 являются членами Национальной академии медицины США<sup>8</sup>. В связи с этим, деятельность преподавателей высших медицинских учебных заведений важна в подготовке специалистов, обслуживающих здоровье человека, что делает необходимость и значимость исследования этой проблемы еще более актуальной.

Мировые научно-исследовательские центры уделяют особое внимание научным исследованиям по усилению роли педагога в высшем медицинском образовании, место психологии в его структуре и одновременно совершенствованию характеристик правильного принятия решений в образовательном процессе врача-педагога. В связи с этим, изучение влияния профессиональных мотивов как социально-психологические детерминанты на обеспечение эффективности деятельности педагогов высших медицинских учебных заведений, показатели результативности их деятельности, выявление психологических факторов, характеризующих влияние психологической среды в педагогическом коллективе и акцентирование на вопросы, направленные на совершенствование деятельности, остается актуальной проблемой.

В нашей республике за последние годы создана необходимая нормативно-правовая база для разработки мер по обеспечению здоровья населения, дальнейшей поддержки подготовки потенциальных медицинских кадров путем развития медицинского образования. В связи с необходимостью внедрения качественного медицинского обслуживания, гармоничного оказания медицинской и психологической помощи пациентам по принципу «За ценности человека»<sup>9</sup> на основе «...В новом Узбекистане, конечно же, добиться высокой эффективности в системе здравоохранения для выживания поколений, которые здоровы во всех отношениях, которые своей силой, совершенством пробуждают

---

<sup>8</sup> Лучшие медицинские ВУЗы за рубежом// <https://travelsmartclub.com/publications/luchshie-meditsinskie-vuzi-za-rubezhom>

<sup>9</sup> [https://www.lex.uz/ Хусусий тиббиёт ташкilotларини ривожлантиришни қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чоратadbирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги ПҚ-4606-сон қарори.](https://www.lex.uz/docs/Хусусий_тиббиёт_ташкilotлари_учун_тақиқланган_аҳолининг_хаёти_соғлиги_ва_санитария-эпидемиологик_хотиржамлиги_учун_юкори_даражадаги_хавф-хатар_билан_боғлиқ_тиббий_фаолиятнинг_айрим_турлари._Ўзбекистон_Республикаси_Президентининг_2017_йил_1_апрелдаги_ПҚ-2863-сон_қарори.https://www.lex.uz/)

дух других... должна быть стратегической задачей.....»<sup>10</sup> обеспечивает прочную основу для поиска новых теоретических решений, направленных на более глубокое изучение этой темы через научные исследования.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации масштабных стратегических мероприятий, предусмотренных Указами Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 8 октября 2019 года №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлениями от 5 мая 2017 года №ПП-2956 «О мерах по дальнейшему реформированию системы медицинского образования в Республике Узбекистан», от 6 мая 2019 года №ПП-4310 «О мерах по дальнейшему развитию системы медицинского и фармацевтического образования и науки», от 7 апреля 2020 года №ПП-4666 «О мерах по внедрению совершенно новой системы подготовки и непрерывного повышения квалификации кадров в медико-санитарной сфере», от 25 мая 2021 года №ПП-5124 «О дополнительных мерах по комплексному развитию сферы здравоохранения», а также в решении задач, поставленных в других нормативно-правовых документах, относящихся к этой деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование и пути реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-нравственном развитии информационного общества и демократического государства».

#### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации**<sup>11</sup>.

Научные исследования по развитию медицинского образования и подготовке специалистов в этой области проводятся ведущими мировыми научными центрами и высшими учебными заведениями, в том числе, Harvard University (США), Stanford University (США), Imperial College of London (Великобритания), University of Cambridge (Великобритания), Karolinska Institute (Швеция), University of Melbourne (Австралия), Первый Московский государственный медицинский университет (Российская Федерация), Московский государственный медико-стоматологический университет (Российская Федерация).

На основе исследований, проведенных с целью выявления психологических проблем педагогов медицинских учебных заведений мира, была внедрена подготовка кадров по программам Pathways и HST в медицинском образовании (Harvard University, США); были совершенствованы критерии системы отношений «педагог-студент» в образовательной среде на основе организации деятельности педагогов-консультантов (Stanford University, США);

<sup>10</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: «O'zbekiston». 2021. - Б. 464.

<sup>11</sup> Диссертация мавзусига доир хорижий тадқиқотлар тахлили URL:<https://www.harvard.edu/>, URL:<https://www.stanford.edu> <https://www.imperial.ac.uk/>, Eastern Michigan University), <https://www.unimelb.edu.au/>. URL:<https://www.cam.ac.uk/>, URL:<https://raex-rr.com/database/contender>, URL:<http://www.raex-rr.com/database/contender/>

был оптимизирован процесс подготовки медицинских кадров по взаимодействию психологии с психиатрией и неврологией на основе реорганизации структуры образовательного процесса (Imperial College of London, Великобритания); была достигнута разработка нового подхода к улучшению учебных программ подготовки высококвалифицированных врачей и руководителей здравоохранения, научных исследований и медицинского образования, а также расширению клинических возможностей на основе установлении взаимосвязи теории и практики в любой области медицины (University of Cambridge, Великобритания); была достигнута оптимизация деятельности врачей-педагогов на основе сотрудничества клиники с научными центрами с помощью организации исследований в области медицинских и естественных наук (Karolinska Institute, Швеция); было систематизировано повышение квалификации в медицинском образовании путем формирования взаимодействия педагогов клинических, доклинических и медицинских модулей (University of Melbourne, Австралия); было оптимизировано непрерывное преподавание клинических, доклинических и медицинских наук на основе организации отношений преподавателя и студента в системе цифровой кафедры (Первый Московский государственный медицинский университет, Российская Федерация); формирование программы организации кластера медицинского образования привело к организации совместной деятельности педагогов непрерывного образования (Московский государственный медико-стоматологический университет, Российская Федерация).

В настоящее время в мире ведутся научные исследования, призванные обеспечить эффективность деятельности педагогов современного медицинского образования и направить их на деятельность. В частности, в проводимых в этом направлении исследованиях освещаются разработка комплекса важных качеств педагогической компетентности и выявление социально-психологических аспектов медико-педагогической деятельности; достижение гармонии медицинской и педагогической деятельности педагогов медицинских высших учебных заведений и педагогико-психологическое совершенствование их деятельности.

**Степень изученности проблемы.** В Узбекистане, несмотря на небольшое количество психологических исследований по медицинскому образованию и обеспечению его эффективности, ряд ведущих ученых республики в области психологии проводят исследования по направлениям медицинской психологии. Научно-исследовательские работы по вопросам медицинской психологии Ш.Р.Баратова, З.Р.Ибодуллаева, Д.И.Илхамовой, М.Х.Карамяна, В.М.Каримовой, Р.Н.Мелибаевой, Ю.К.Нарметовой, З.Т.Нишиновой, Д.А.Собировой, Д.А.Уразбаевой, Г.Б.Шоумарова, Э.Г.Гозиева, Б.Р.Кодирова и других<sup>12</sup>, представляют собой научное изучение вопросов психологической

---

